

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUXAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

MUSIQA VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

XOLBERDIYEVA MO'TABARXONNING

***YOSH IJROCHILAR, YOSH BASTAKORLAR
IJODINI O'RGANISH VA IQTIDORLI
TALABALAR BILAN ISHLASH mavzusida***

5111100-musiqqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish
uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar:

M.Nasriddinov

Andijon – 2015

**MAVZU: YOSH IJROCHILAR, YOSH BASTAKORLAR IJODINI
O'RGANISH VA IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASH**

REJA

KIRISH

**I BOB YOSH IJROCHILAR HAMDA YOSH BASTAKORLAR IJODINI
O'RGANISHDA CHOLG'U IJROCHILIGINING TUTGAN O'RNI VA
AHAMIYATI**

1.1. Qadimgi Sharq madaniyatidan hozirgi davrgacha bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari va ijrochilik san'ati.

1.2. Dastlabki o'zbek xalq cholg'u ansambllari va unda kasb mahoratining o'rni.

**II BOB. YOSH IJROCHILAR HAMDA YOSH BASTAKORLAR IJODINI
O'RGANISH ORQALI IQTIDORLI O'QUVCHILAR TAFAKKURINI
O'STIRISH.**

2.1. O'zbek milliy musiqa merosida yosh ijrochilar, yosh bastakorlar ijodini o'rganishning yoshlarda ijodkorlik tafakkurini o'stirishdagi o'rni.

2.2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uning bugungi kundagi zarurati.

XULOSA.

ILOVA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

KIRISH

Mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajriba, dunyoqarash jamoatchiligi o'zbek modeli deya e'tirof etgan o'zimizga mos taraqqiyot yo'li-kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangiliklar xalqimiz qalbi ongi va g'ururiga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston fuqorolariga ta'lim tarbiya berish, kasb xunar o'rgatishning xuquqiy asoslarini belgilaydi, hamda har kimning bilim olishidan konstitutsiyaviy uquqini olishga qaratilgan. Qabul qilingan milliy dasturning esa asosiy maqsadi ta'lim so'hasini tubdan islo'h qilish uni o'tmishdan qolgan ma'kuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la islo'h qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va a'hloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakaviy kadrlar tayyorlash milliy tizimni yaratishdir-deb belgilangan. Har ikki davlat xujjatlari yosh avlod tarbiyasida ularni ma'naviy-a'hloqiy sifatlarini shakllantirish, o'z vataniga sodiq vatanparvar kishilar qilib tarbiyalash alo'hida qiziqishlar bilan belgilab berilgan.

Barchaga ma'lumki yosh avlodni ma'naviy jixatdan tarbiya etishda ko'plab omillar qatorida san'at alo'hida o'rin tutadi. Chunki, san'at insonning ichki tuyg'ulariga xissiyot olamiga ta'sir ko'rsatadi, ularda a'hloqiylik odobiylik sifatlarini shakllantirib borishga xizmat qiladi Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'biri bilan aytganda ma'naviya insonga ona suti, ota na'munasi, ajdolar o'giti bilan singib boradi. Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. Ma'naviyatni mustaxkamlash uchun me'hnat va mablag'ni ayash o'z kelajagimizga bolta urush demakdir. Ma'naviyat juda nozik tarbiyaviy so'ha, buni o'z bo'larchilikka tashlab qo'yib bo'lmaydi. Sir emaski har qaysi davlat har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan xarbiy qudrat bilan va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak ma'naviyati bilan kuchlidir. Inson baxt uchun tug'iladi.

Insonning irqi, millati, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar, uning qalbiga yo'l topib, xis tuyg'ulari kayfiyati va ruhiy xolatiga serjilo nafis tovushlar

vositasida badiiy obrozlar orqali kuchli emosional ta'sir ko'rsatib, maxliyo qila oladigan zo'r tarbiya vositalaridan biri musiqa san'atidir. Shuning uchun musiqa ta'limi va tarbiyasiga ma'suliyat bilan yondashib, unga aloxida e'tibor berish lozim.

Musiqa ta'limi va tarbiyasini yanada yuksaltirish borasida Prezidentimiz I.A.Karimovning qilayotgan g'amxo'rliklari hammamizga ayon.

Keyingi mustaqillik yillarida bu soxada anchagina ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Xozirgi kunda barcha musiqa o'quv dargoxlari va umumiy musiqiy ta'lim uchun milliy asosdagi yangi dasturlar, Davlat ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etilgan. Ta'limning barcha turlari va bosqichlaridagi ayrim muammolarni echishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 2008 yil 30 aprel № 117/18 qo'shma qarori barcha fanlar qatoridagi uzluksiz musiqa ta'limidagi uzviylikni ta'minlash muammolarini echish choralarini ham belgiladi.

Musiqa ta'limining boshqa , asosan aniq fanlardan farqi shundaki unda musiqiy – nazariy bilimlardan ko'ra amaliy ijro ustunroq turadi. Buni maxsus musiqa ta'limi, xavaskorlik doirasidagi faoliyati tufayli el nazariga tushgan yorqin xonandalar sifatida ham ko'rish mumkin. Ammo musiqa kasbini egallab olish uchun xozirgi davrda yaratilish qonuniyati, shakli, mazmuni, yozuvi, janri, ijro vositalari turlari xaqidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Musiqada asosan vokal (aytish) va cholg'u yo'nalishlari mavjud. Cholg'u ko'pincha vokal musiqasiga jo'r bo'lishi bilan birga, aloxida sof cholg'u musiqa asari sifatida ham ko'rinadi. Vokal musiqasining ayrim "akapella", "katta ashula" kabi namunalari ham bor, ular cholg'u jo'rligisiz ijro etiladi. Har qanday musiqa asarining muvoffaqiyati esa asosan yaratuvchi, ijrochi va tinglovchining etuklik darajasiga bog'liq. Bularning hammalarini dastlab umumiy, keyinchalik kasbga intilganlarini maxsus musiqa o'quv dargoxlarida ta'lim va tarbiya olishlarini nazarda tutadigan bo'lsak, uzluksiz musiqa ta'limi tizimida uzviylikni ta'minlash orqali soha sifati va samaradorligini oshirishning muhim ahamiyati yaqqol ko'rinib qoladi.

Musiqa ta'limida vokal va cholg'u ijrochiligi yo'nalishlari maktabgacha tarbiya muassasidan boshlab, OTMning magistratura bosqichigacha davom etadi. Bu shartli olti bosqichning har birida o'quvchi yoshlarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyat turlarining maqsadi, mazmuni, zaruriy bilim va ko'nikmalar, texnik va badiiy repertuar hamda ijronibaholash mezonlari tanlanadi. Har bir navbatdagi bosqichda musiqaning yangi qirralari ochilib, rivojlanib borishi zarur. Masalan: cholg'u ta'limi talabalari bo'yicha musiqa maktabidan boshlab OTMning magistratura bosqichigacha cholg'uda turli murakkablikdagi o'zbek, chet el kompozitorlari asarlari va milliy musiqiy me'ros namunalari ijro etiladi. Aslida mantiqan kollej va OTMga o'qishga kirganlarning ko'pchiligi cholg'u asbobida chalish u yoqda tursin, xatto maktab musiqa ta'limini talabalariga ham javob bera olmaydilar. Ularning cholg'u ijrochiligi faoliyati esa keyingi 2008 yil o'quv rejasiga ko'ra 2-kursdan boshlanadi. Biz o'quv dasturlari va real ta'lim jarayoni taxlili asosida cholg'u ijrochiligi faoliyatini qisqa tavsifladik.

1. Maktabgacha tarbiya (qiziqishlarning boshlanishi) – cholg'ular ovozi eshitish, ularni ko'rish, rasmlarni ko'rish ularning tovushlarni bir-biridan farq qilishini tasavvur qilish, ulardan tovush chiqarish, o'yinchoq cholg'ulardan chalish, imitatsiya qilish.

2. Umumta'lim maktabida (stixiyali intilishlar): - darsda cholg'ular rasmini va o'zini ko'rish tovushini eshitish, cholg'ularni ko'rinishiga qarab ovozidan tanish, ularda chalib ko'rishni o'rgana boshlash, sinfdan tashqari to'garaklarda chalishni mashq qilish.

3. Bolalar musiqa maktablari va ijodiy uylarda (tizimli asoslar): - cholg'ular bilan yaqindan tanishish, uni to'g'ri tutish, tovush chiqarish, applekaturani o'rganish, sof intonasiya, shtirxlarni o'rganish, gammalar, etyudlar, soddaroq kuylar chalish, ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish, nisbatan murakkab asarlar ijro eta olish.

4. Musiqiy lisey va kollejlarda (kasbga kirish): cholg'u imkoniyatlarini o'rganish, chalish, asbobdagi kamchiliklarni tuzata olish, kamida 4 belgigacha

gammalar, etyudlar va ancha murakkabroq asarlar chalish, asarlar shakli, janri va tavsifini aniqlash, (etyudlar) va notaga qarab chala olish.

5. Oliy musiqiy ta'limda, (kasbiy shakllanish): - cholg'uni to'liq o'zlashtirish, turli turli tanalliklarda gamma, etyud va yirik shakldagi, turli tavsif va fakturadagi asarlar chala olish, asarlar taxlili dinamikasi pozisiyalar, transpazisiyada chalish, konsertlarda ijro etish.

6. Oliy musiqiy ta'lim turida (kasbga yuksalish): - cholg'uni mukammal o'zlashtirish, bakalavriat va kollej repertuarini bilish, repertuar, dastur va boshqa adabiyotdarni taxlil qilish, cholg'ushunoslik va ansambl, orkestr bilan ishlash, cholg'ularda chalish metodikasini o'rganish.

7. Bitiruv malakaviy ishimizning o'bekti

Umumta'lim maktablarida yosh ijrochilar, yosh bastakorlar ijodini o'rganish va iqtidorli talabalar bilan ishlash.

Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi yoshlar qo'lidir. SHunday ekan yoshlar tarbiyasi, jumladan estetik tarbiya asosan o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Shu kunlarda bolalar bog'chasidan tortib, Oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan joylardagi dasturlar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yangitdan ko'rib chiqilmoqda. Zero, milliy ma'naviyat va ma'rifat yangitdan ko'z ochmoqda. Milliy mafkuramizni rivojlantirishda xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish musiqa me'rosimizni o'rganish va san'atsevar xalqimizga etkazish muxim o'rin tutadi. Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi ham ana shundadir.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi va vazifasi shundan iboratki, ta'lim tarbiya soxasida yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratishida baholi qudrat qo'maklashishdir. SHuningdek Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yakunlovchi bosqichida ko'plar qatori faol ishtirok etishdir.

Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi shundan iboratki o'rta maktablarda, musiqa va san'at maktablarida, kalendar rejalarda mavjud bo'lgan o'zbek xalq ansambllari, orkestrlari ishlari ishlarini takomillashtirish borasida ushbu jamoa raxbarlariga nazariy va amaliy yordam ko'rsatishdir. Ushbu

jamoalardagi mavjud bo'lgan ayrim etishmovchiliklar, kamchiliklarni bartaraf etish borasida bajariladigan vazifalarni ko'rsatishdir.

Milliy musiqiy merosimiz, jumladan milliy cholg'u ijrochiligimiz tarixi ham eramizdan bir necha asr oldingi davrlarga borib taqaladi. Xalqimiz va millatimizning barcha rivojlanish davrlarida qo'shiq bilan bir qatorda tanbur, dutor, doyra, ud, g'ijjak, qonun, rubob kabi milliy cholg'u sozlarimiz qalb qo'riyuko'ngil davosi sifatida bebaho ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilgan.

Milliy cholg'ular ichida tanbur alohida o'rin tutadikim, tanbur sozi o'zining yurak qitiqlari, nola-yu - qochirimlari, rang-barang milliy ijro bezaklari va nihoyat, o'rganish va ijro etish jihatidan murakkab bo'lishiga qaramay xalqimiz orasida naqadar ommaviylashgan va sevimli sozga aylangan.

Tanbur nafaqat o'zbek xalqi orasida, balki qardosh tojik va uyg'ur xalqlarida ham sevib ijro etiladi. Chunki tanbur sozida mumtoz klassik maqom kuylari, o'zbek xalq kuylari qatori, bastakor va o'zbek kompozitorlari tomonidan yozilgan kuylarni ham mohirona ijro etish mumkin.

Bu cholg'udagi ajoyib ijrochiligi bilan xalqimizga manzur bo'lgan va qalblardan chuqur joy olgan tanburchilarimizdan Sultonali Hakimov, Maqsudxo'ja Yusupov, Yoqub Davidov, Asatqori Lutfullayev, Ma'rufxo'ja Toshpo'latov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Rizqi Rajabiy, Jo'rabek Saidaliyev, Abdumutal Abdullayev, Shobarot Tanburiy, Ro'zimatxon Tanburiy, Otavali Nuriddinov, Tojikistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Shonazar Sohibov, Fazliddin Shaxobov, Boboqul Fayzullayev va shular kabi juda ko'p sozandalarning nomlarini faxr bilan tilga olamiz.

Mazkur o'quv qo'llanma musiqiy oily o'quv yurtlarining an'anaviy ijrochilik bo'limlaridagi tanbur sinflarida tahsil olayotgan magistratura bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada tanbur haqida qisqacha ma'lumot, nota savodxonligiga oid, badiiy ijro mahoratini egallashga oid, tanbur ijrochiligida qo'llaniladigan zarblar va milliy bezaklar haqida nazariy va uslubiy ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanmaga o'rganish va ijro etish uchun maqomlardan, o'zbek xalq kuylaridan, bastakorlar va o'zbek kompozitorlari

yaratgan asarlar kiritildi. O'quv qo'llanmaga kiritilgan asarlar kayfiyati va ijro uslublari jihatidan turlicha bo'lib, oddiydan-murakkabga tomoyili asosida joylashtirildi.

I BOB YOSH IJROCHILAR HAMDA YOSH BASTAKORLAR IJODINI O'RGANISHDA CHOLG'U IJROCHILIGINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

1.1. Qadimgi Sharq madaniyatidan hozirgi davrgacha bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari va ijrochilik san'ati.

Yosh avlodni o'qitish va barkamol inson qilib tarbiyalashda san'atning ta'sir kuchi beqiyosdir. Umumiy musiqaviy ta'lim bilan bir qatorda bolalar musiqa va san'at maktablari hamda bolalar ijodiy uylari – o'quvchilarni musiqiy estetik tarbiyalashda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz raxbarining Bolalar musiqa va san'at maktablari moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan "Davlat dasturini tayyorlash chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoyishda musiqa va san'at maktablari uchun davlat o'quv standartlari va o'quv dasturlarini darsliklar va metodik qo'llanmalarni zamonaviy me'zonlar asosida takomillashtirilishi vazifasi qo'yilgan. SHu vazifalarni amalga oshirish borasida Respublika xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi Respublika ta'lim markazi bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Musiqa madaniyati bo'yicha tuzilgan ilmiy-metodik kengashning yangi tarkibiga musiqa ta'limi yo'nalishida xizmat qilayotgan bir qancha peshqadam olim mutaxassilar bilan bir qatorda musiqa san'at maktablarining tajribali raxbarlari kiritilgan. BMSM o'quv rejasi davlat talablari, muxassislik darslari jamoa ijrosi va boshqa mashg'ulotlar uchun o'quv dasturi tayyorlanib, tajriba, sinov maydonchalarida sinab ko'rish uchun yuborilgan, ularni takomillashtirish bo'yicha sinov tajriba o'tkazayotgan tajribali o'qituvchilar va raxbarlarning fikr va muloxazalari sinchklab o'rganilmoqda. BMSM ularning o'quv jarayonini yuksaltirishga qaratilgan o'quv me'yoriy xujjatlari bilan tanishib chiqqanimizda bizning qiziqishlarimiz doirasidagi muammo-o'quvchilarni o'zbek cholg'u musiqasi vositasida musiqiy-estetik tarbiyalash va uning metodikasiga nazar tashladik. Shu nuqtai nazardan yondashib qashqar rubobi, g'ijjak, va shu cholg'u asboblari an'anaviy ijro yo'nalishi qisman skripka, fortepiano, cholg'u asboblari dasturini taxlil qilib ko'rib chiqdik. Avvalo dasturlarda tavsiya etilgan

musiqa asarlariga e'tiborni qaratidigan bo'lsak, g'ijjak cholg'u asbobida ijro etish uchun tanlab olishga muljallangan 306 asar ro'yxati berilgan. Bulardan 116tasi o'zbek xalq bastakor va kompozitorlari asari, 190 tasi chet el, rus va boshqa xalqlar musiqasi, qashqar rubobi dasturida berilgan. 115 ta asardan 88 tasi o'zbek, 27 tasi boshqa millat (chet el, rus) musiqa asarlaridir. Xuddi shu cholg'u asboblari an'anaviy kasbiy ijro yo'nalishini dasturlarida esa asarlar taqsimoti mutlaqo boshqacha. Ya'ni qashqar rubobi an'anaviy ijro dasturida 72 ta asosan o'zbek xalq musiqasi namunalari ro'yxati berilgan bo'lsa, g'ijjak an'anaviy kasbiy ijrochiligi dasturida o'zbek cholg'u ijrochiligi namunasi 77 ta asardan iborat.

Mazkur dasturlarda berilgan adabiyotlar ro'yxatini ham ko'rib chiqamiz. G'ijjak cholg'u dasturida 43 ta adabiyot ko'rsatilgan bo'lib, shulardan 5tasi o'zbek musiqasidir. Qolgan 28 tasi rus mualliflarining to'plam va darsliklaridir. Qashqar rubobi xalq cholg'usi dasturida 12 o'zbek mualliflari darslik va to'plamlari ko'rsatilgan bo'lib rus mualliflari to'plami kiritilmagan. SHu cholg'u asboblarning an'anaviy kasbiy ijro yo'nalishi dasturlarida bir-biridan ozroq farq qiladigan asosan bir xil adabiyotlar berilgan.

Biz qayd etib o'tgan mutaxassislik (asosiy) cholg'ular bo'yicha o'qish muddati 5 (6) yilligini hisobga olsak har bir o'quv yilida o'quvchi o'rtacha gamma va texnik etyud mashqlardan tashqari 8tadan badiiy asarlar ijro etadi. Bu asarlar 1-5 (6) sinflar davomida taxminan 50 tani tashkil etish mumkin. YUqorida eslatilgan dasturlarda asarlar sonini taqqoslab o'rganishimizda eng ko'pi 306 tani eng kami 72 ta bo'lib, orasidagi farq esa 234 tani tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, g'ijjak cholg'u dasturida bir o'quv yili uchun 10ta ya'ni kam asar berilgan o'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlari, musiqiy qobiliyat va iste'dodlarini xisobga olib, ularga yakka tarzda asarlar taqsimlash rejasini tuzamiz. SHuning uchun ayrim o'quvchilarda nisbatan murakkabroq, ayrimlariga soddaroq asarlar ijrosi topshiriladi. Tajribalar shuni ko'rsatyaptiki buning uchun tavsiya etiladigan asarlar sonini 2-3 marta ko'paytirib, tanlab olish uchun imkon yaratish mumkin. SHunda bitta sinfnig o'zida turli tavsif, shakl, mazmun, lad, o'lchov,

diopazon, sur'at va murakkablikdagi asarlar ijrosi nazarda tutilib xilma-xil repertuar tanlanadi.

Shular asosida aytish lozimki, har bir sinfning yilliy badiiy asarlar ro'yxati 20-22 ta, ijro imkoniyatlari baland (murakkab) roq, o'rtacha va pastroq bo'lgan 3 variantdagi asarlar tanlash etarli bo'ladi. Adabiyotlar ro'yxatini havola qilganda ham xuddi shu me'yorni saqlash mumkin.

Uzluksiz musiqiy ta'limda BMSM laridan keyin musiqa yo'nalishidagi kollejlarda oliy musiqiy yoki musiqiy pedagogik ta'lim va ularning magistratura bosqichi borligini nazarda tutib ijro ko'nikmalari va musiqiy nazariy talab me'yorlarini to'g'ri aniqlab olish zarur. Aks holda hozirgi kunda bo'layotganidek musiqiy kollejlarga ham oliy ta'lim muassasalariga hama asosan boshlang'ich musiqiy tayyorgarligi bo'lmaganlarni qabul qilib, hammasini O'dan boshlashga to'g'ri keladi.

Qadimgi sharq madaniyatidan hozirgi davrgacha bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari va ijrochilik san'ati.

O'rta Osiyo xududida ijrochilik san'atining paydo bo'lgan davridan to XIX asrning 60 yillarigacha taraqqiyoti ahamiyatlidir. Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII yillikda dunyoga kelgan deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Bu tushunarli. Chunki, eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos takrorlanmas, go'zal xolatni vujudga keldirar edi.

Qadimgi sharq madaniyati quchog'ida o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarining tovush tusini saqlab qoldi, o'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, g'abuzlar an'anaviy shakllarda bizgacha etib keldi.

Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoning g'arbiy viloyatlarida porfiyona, sharqida esa Grek-Bak, Baktria davlatlari tashkil topdi. Eramizning I

asrida O'rta Osiyoning janubiy qismida qudratli Kushon shoxligi tarkib topdi. Maxalliy Kushon sulolasi xokimiyati ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasi o'laroq shaharlar yuksaldi, madaniyat gullab yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg'ularining yaratishiga sharoit yuzaga keldi.

Quldorlik tizimi davrida Marokan, Niso, Tuproqqal'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar xududida olib borilgan qazilma ishlar chog'ida badiiy xunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularning tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi. Eramizning IV asridan boshlab O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarida o'zgarishlar yuz berdi: quldorlik tuzumi o'rnini asta sekin feodal tizimi egallay boshladi. IV asrning 60 yillarida O'rta Osiyoga turklarning kelib kirishi natijasida Turkiy va Sharqiy eron xalqlarining aralashuvi tobora kuchayib, natijada o'zbek va boshqa O'rta Osiyo xalqlari shakllandi. Shu davrdan boshlab o'rta Osiyo xududi (Turkiston) turklar yashaydigan joy nomini oldi. XX asrimizning 30-40 yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspedisiyalar natijasida O'rta Osiyo madaniyatini shu jumladan xalq cholg'ularini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholg'u, xozirgi doiraga o'xshash do'mbra va shu singari cholg'ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproqqal'a, Ayratom (Ayratom frizi deb ataladi) kabi shaharlarda topilgan sopol idishlarda mashshoq xaykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari, lyutniya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud eshmane, chag'ona, chiltor, nay, burg'u, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularida mashq qilishlari tasvirlangan.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo xalqining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli", "Xosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni

xalq cholg' u ansamblari, xonanda va sozanda, raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda, karnay, surnay, doira, nog' ora va chandavul kabi va urma zarbli musiqa cholg' ulari keng tarqalgan. Xalq raqslari aslida qosh o' yini, elka o' yinini, bosh o' yinini kabilarni o' z ichiga oladi.

Feodalizm davrida O' rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotini yangi bosqichiga ko' tarildi. VII asrda Osiyoga arablarning kirib kelishi keng xududda arab xalifaligini barpo etdi. Tirik jonzotni tasvirlashni taqiqlovchi islom dinining yoyilishi devoriy suratlarni, shu jumladan musiqa cholg' ulari tasvirini barham topishiga olib keldi. VII- VIII asrlardagi arab istelochisi O' rta Osiyo madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta' sir o' tkazdi. IX asr oxirida somoniylar maxalliy feodal sulolasi O' rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvoffaq bo' ldi. Samoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu erda adabiyot va musiqa taraqqiy etdi. Xayot sharoitini o' zgarishi tufayli musiqa san' atini ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turkumida musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O' sha paytlardayoq yakkanavoz ansambl musiqachiligi va raqsni o' z ichiga olgan vokal , cholg' u, musiqa turkum turlari mavjud edi. Saroy ayonlari tantanali marosimlarida ijro etilgan musiqa aloxida o' rin tutgan. Odamda bu bir necha damli (karnay, surnay) va urma zarbli cholg' ular: (nog' ara, chindovul) asboblarning birgalikda chalinishidan xosil bo' lgan bo' lib, bu ijrochilik san' atini asosan ayollar egallagan edilar.

O' rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o' ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg' uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblarini chala olgan, balki o' zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg' uchilar o' z davrining yetuk musiqachilari hamda shoirlari ham bo' lishgan. O' rta asr sharoitida musiqaviy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarni paydo bo' lishiga olib keldi. Bu erda ustoz-shogird an' analari qaror topib, ancha rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san' atining asosiy ko' rinishlari shakllanib, cholg' u asboblarining yangi namunalari kashf etilishi ham o' sha uzoq davrlarga borib taqaladi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud. Ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati xaqida atroflicha muxokama etib, ma'lumot berganlar. Farobiyning (873-950) "Katta musiqa maktabi" (Kitab al-musiqa al-kabir), Ibn Sinoning (980-1038) "Davolash kitobi" (Kito ush-shifo) qomusidagi "musiqa xaqida risola", Al Xorazimiyning "Bilimlar kaliti", Safiutdin Urmaviyning (1216-1294) "Oliyjanoblik xaqida kitob" yoki "SHarafiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqa xaqida risola kitoblarida" musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari xaqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Safiutdin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi xonanda, mashxur sozanda sifatida tanilgan. U Ozorbayjonning Urmiya shaxrida tug'ilgan. Safiutdinning eng katta yutug'i lad (modus)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir. Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musiqa xaqida to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabi fil-musiqiy") uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni- musiqada lادلarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog'iy (XV asr) Abduqodir Ibn – G'oyibiy (Marog'iy) Ozorbayjonning Maroq shaxrida tug'ilgan bo'lsada, xayotining ikkinchi yarimi Temur saroyida – Samarqandda o'tgan va Xirotda vafot etgan. "musiqa ilmida ohanglar to'plami" (jami al-alxan fism al-musiqiy) risolasida musiqa xaqidagi ta'minotni – kamoncha, etti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlari bilan boyitdi. Al Xusayinning (XV asr) musiqiy kamonlarida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg'usi – dutor xaqida ma'lumot berilgan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyachisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur xaqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqashunos Darvish Ali o'z risolasidagi tanbur, chang, konun, barbod, chag'ona, ud, rud, rubob, kabus, g'ijjak, shemene, ruxavza, kunyura kabi musiqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumot berganlar.

Buyuk sharq mutaffakirlarining me'rosi xalq cholg'ularini o'rganish soxasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashxur asari –

“Musiqqa xaqida katta kito” (“Kitob al-musiqqa al-kabr”) ulkan ahamiyatga ega. O’rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo’shiq san’ati) va cholg’ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Farobiy mohir ijrochi sifatida musiqqa cholg’ularining jamiyat hayotidagi rolini o’rganishga ahamiyat beradi va u “Jangu jadallarda, raqslarda, to’y-tomoshalarda, ko’ngil ochar bazmlarda hamda ishq muxabbat qo’shiqlarini kuylashda chalinadigan o’ziga xos cholg’ulari bor” deb yozgan edi.

Darvesh Ali ta’rif bergan cholg’ulardan ettitasi: tanbur, chang, ud, qonun, rubob, qobus, g’ijjak o’sha davrda eng katta, keng tarqalgan cholg’ular edi. Darvesh Alining ma’lumotlari musiqqa amaliyotida dastlab ansamblda uyg’un kolorit hosil qiladigan torli – noxunli va torli komonchali cholg’ular qo’llaniladiganligi xaqida fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo’ja Abdulloxlari, Mavlono Mirek changi Buxoriy, Mavlono Qosim-i Rabboniy, Sulton – Axmad-i- “Devona” rubobchilar aka-uka Shayx Abubakir-i Rabboniy va Shayx Bextuychiy, Dono, qonunchi shayx Shamsiy Rabboniy va ko’pgina boshqa mashxur ustalarning nomlari tilgan olinadi.

G’ijjak cholg’uchi Shox Quliy, G’ijjakiy shu musiqqa asbobida ajoyib musiqqa maxoratini ko’rsatgan va cholg’u kuylarini yaratgan usta san’atkor bo’lgan.

Uning yaratgan kuylari muhammas ritmida yaratilgan peshravi “ Xusayniy” aloxida ajralib turadi.

Naychi Sulton Axmadni Darvesh Ali mashxur cholg’uchi sifatida tilga olinadi. Risola muallifining sezishicha u chalgan nayning sexirli oxanglari musiqqa sa’nati ixlosmandlarida chuqur taassurot qoldirgan.

Ud cholg’uchisi Sulton –Muhammad-Uddiy- Samarqandiyini muallif noyob iste’dodli cholg’uchi, musiqiy asarlar ijodkori sifatida aks ettirgan. Buxorolik Shayx Shamsiy- Rabboniy moxir rubob cholg’uchi, mashxur sozanda sifatida tanilgan. Uning ijrosi tinglovchilarga shu qadar kuchli tasir qilganki hech qaysi kishini befarq qoldirmagan. Rubobining ohangini eshitgan betakror ijrosidan xayratga tushgan odamlar chor atrofdan to’planib kelaverishgan ekanlar.

Taniqli cholg'uchi Darvish Shadiydan ud va chang cholish maxoratini egallagan, uning shogirdi mohir sozanda mavlon Zaynulla Bedanin Rumiy ko'pgina peshravlar (Isfaxon, Soqilpeshrov, Far va Bashq) ijodkor edi. Xalq cholg'ularining ko'ziga ko'ringan ijrochilaridan biri Ali- Shumqor dugox ohanglarida, Turk, Zarb ritmida yaratilgan asarlar bastakori sifatida tanilgan. Uning "Safti begumiy", "Naqshiy begumiy" (buyoqdor-ohangdor kuylar) ohanglari xalq orasida keng yoyilgan.

Najmiddin Kavkabiy va Darvesh Ali risolalarida 12 maqom – (Raxoviy, Xusayin, Zangula, Rost, Ushshoq, Navo, Bo'stlik, Xijoz, Iroq, Isfaxon, Zirafkand, Buzruk) asosida musiqa asarlari yaratgan bastakorlar nomi tilga olinadi.

Ijrochilikda etuk bo'lgan Mavlon Shayxi, Tebes – Tileksiy, Ibn Abduraxmoniy, Rumiy, (Rud) Ustad, Zaytuniy – G'ijjakiy, Xo'ja Maxmudbek Isfoqiy, SHexoniy (dutor), Said Axmad Bin Mextariy, Miraqiy, Ustad Qurbon, Sa'diy, Ustad Poyonda (nog'ora, surnay), Ustad – Amir Quliy, Tanbuliy (tanbur), Axmad Qonuniy Samarqandiy (qonun), Shayx Axmadiy G'obiziy (qobuz) musiqa nazariyasining katta bilimdoni o'z davrini musiqaga bag'ishlashi lozim.

Har bir asar mazmunini musiqiyliigi va harakterlarining xilma-xilligi bilan o'ziga o'quvchilarni jalb eta oladigan jozibaga ega bo'lmog'i zarur.

Ansambl mashg'ulotlari har xaftada ikki saotdan muntazam ravishda olib borilishi kerak. Mashg'ulot uchun aloxida jixozlangan yorug', estetik jixatdan yuqori did bilan bezatilgan xona ajratilgan va ish tartibi kunlari, soatlari aniq ko'rsatilmog'i lozim.

Musiqa raxbari mashg'ulotining birinchi kunlarida e'tibordan har bir ansambl qatnashchisining o'rnini ko'rsatishi, ularga cholg'u asboblarini ushlar qoidalarini va ansambl tuzilishini, tartibini yaxshi bilishi va atrofdagi cholg'u asboblari tovushiga asoslanishi zarur.

Cholg'u asboblari ovozlarning baland pastligiga qarab joylashtirilishi ansambl sadosi uchun katta ahamiyatga ega. Ansambl o'rgatiladigan asarlar guruxlarga bo'lingan holatda ijro etilishi kerak, chunki har bir o'quvchi asarni yaxshi

o'zlashtirib, ijro etishi qiyin. Ba'zi xavaskorlar ansamblda ijro etiladigan asarlarni tez tushunib o'zlashtirib oladilar.

Musiqaxbari o'z-o'zini boshqarish tartibini yo'lga qo'yishi doimiy ishtirok etib, yaxshi o'zlashtiruvchilarni doimo rag'batlantirib borishi foydaliroqdir. Agarda ansamblga ijrochilarning ayrimlarida musiqaxbari bilim yurtlari hamda madaniyat oliygohlariga kirish ishtiyoqi tug'lsa, ularga alohida e'tibor berish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, kerakli adabiyotlarni tavsiya etish, ularda musiqaxbari yoki musiqaxbari o'qituvchisi bo'lishi to'g'risida tushunchalar hosil qilishga erishishi lozim. Ansambl ishining eng qiziqarli va ma'suliyatli bosqichi qatnashuvchilar tomonidan tayyorlangan musiqaxbari asarlarini konsertda namoyish etish bo'lib, bu ijrochilar uchun ham, tomoshabinlar uchun ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Agar ansambl a'zolarida ijldiy san'ati vakillarining ilg'ori Amir Mastiy Xirotiy (Qobis), Yunus Mavludiy Dutori Xirotiy (dutor), Ustod G'uloqiy Nvaiy Ustod Abdusattor Qonuniy, Ustod Arab-Navziy Qobiziy, Xo'jagiy Jafariy Qonuniy, Xofiz Boboniy Qonuniy, Xofiz Turdiy Qonuniy va boshqa xalq cholg'u ijrochilari muhim o'rin tutgan. Darvesh Ali o'sha davrda mavjud bo'lgan cholg'u ansambllari va ularning ijrochilari xaqida ular Sulton Muhammad saroyida turli-xil tantanalarda qabullarda dam olish kechalari va yaqin kishilari davrasida doimo ishtirok etganlari xaqida xabar beradi. Saroyda nog'araxona deb atalgan 60 ijrochidan tashkil topgan cholg'uchilar ansambli bo'lgan. Ularni nog'arachi (maestro) boshqargan. U misol tariqasida shunday dalilni keltiradi Sulton Xusayn saroyida ansambl raxbari- mextar vazifasini etuk nog'arachi Said Axmad Bin Mextariy Miroki bajargan. Darvesh Ali bu sozandaning mahoratini yuksak baholab, uni "tengsiz cholg'uchi, bu dunyoning katta-yu kichik mo'jizalari ko'rki" deb ta'riflangan. Saroyda ko'p sonli sozandalarning saqlanishi, ularning hordiq chiqarish tantana va bayramlarini tashkil etishdagi ahamiyati, xalq cholg'ulari ijrochiligi aholining turli tabaqalari orasida keng tarqalganligi xaqida taxminini to'liq asoslaydi. Darvesh Alining guvoxligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qobus, doira, nog'ara, ud) O'rta osiyoning O'zbekiston, Tojikiston va

boshqa respublikalarida shuningdek Ozorbeyjonda bizning kunlargacha saqlanib keldi va u yanada takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushida mustahkam o'rin olib uning madaniy hayotida keng qo'llanib kelingan. SHunday ekan bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari deyish o'rinlidir. Feodal shaharlarning ijtimoiy turmushida har bir cholg'u musiqa cholg'usini muayyan vazifasi bo'lgan. Ziyofat, bazm va yig'inlar (shoirlar majlisi) da odatda torli cholg'ulari, damli cholg'ulardan nay, ba'zan bo'laman, urma cholg'ulardan doira va nog'ora chalingan.

Darvesh Ali o'sha zamonning buyuk cholg'uchilari ijro etgan ko'p qismli turkum musiqiy asarlar – maqomlarning katta ahamiyati xaqida so'z yuritgan. O'rta asr sharq olimlarining asarlaridan musiqiy cholg'ular ular yaratgan ma'naviy va madaniy muxit xaqida tarixiy ma'lumotlar etarli bayon qilingan, ammo ularda u yoki bu xalq cholg'ularining texnik va badiiy imkoniyatlari xaqida ma'lumot juda oz. Risolalarda ta'kidlanishicha ijrochilar aynan o'ziga xos ijrochilik amaliyoti asosida musiqa nazariyasini ishlab chiqishga va xalq cholg'ularini mavjud shakllarini ta'riflashgan.

Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambli ham yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

XV – XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni bu davrga kelib O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrochilik o'z kamolotiga etdi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o'zlari o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq moxir chang, ud, g'ijjak, nay, tanbur, bulaman ijrochilari va etuk xonandalar bo'lgan, ular o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek tanbur, qonun, qobis chalishda yuksak maxoratga erishgan va shu orqali majlislarning matlub qatnashchilarining aylangan xunarmandlarning nomlarini keltirgan. Nazm va musiqa majlislarning ko'rki bo'lgan. Bu erda xozirjavoblik, qo'shiq aytish, biror bir musiqa asbobini chalish layoqati yuqori baholangan. Yosh ijrochilar uchun bu o'ziga hos musobaqa yani ko'rik tanlov

bo'lgan. Shuning uchun ular bir yoki bir necha musiqa cholg'ularini chalishda bir biridan o'zishga intilishgan.

O'zbek xalq cholg'ularining ijrochilik imkoniyatlari doimo kengaydi va takomillashdi. Turli xil xalq cholg'u ansambllarining tashkil etilishi, yakkanavoz cholg'uchilikning rivojlanish musiqa ustalaridan cholg'ularni yanada mukammallashtirishni talab etdi. Biroz vaqtdan so'ng xalq musiqasi ansambllarida qashqar rubobi va chang singari cholg'ularini ovozi yangitdan yangradi.

XIX asrda ijrochilik amaliyotida nay, qo'shnay, surnay, karnay, bo'lamon, chang, qashqar rubobi, buxoro (avfg'on rubobi), tanbur, dutor, dombra, g'ijjak, sato, doira, qayroq, safoyil kabi cholg'ular mustaxkam o'rin oldi.

Cholg'u ijrochilik san'ati tarixida ham XIX asr bir qator musiqa ustalari etishtirib chiqargan davr bo'ldi. Bular: To'ychixofiz, Shoraxim Shoumarov, Shaborat tanburchi, Abdusoat dutorchi, Usta Usmon Zufarov (Toshkent), Rustambek (Andijon), Ashurali Maxram, Abduqodir naychi, Axmadjon qo'shnaychi (Qo'qon), Abdullatorak, Ro'zimatxon changchi (Namangan), Usta Masaid doirachi va changchi, Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq (Marg'ilon) va boshqalardir. Bu san'atkorlar o'zbek xalq musiqasi xazinasi boshliklarini saqlab qolishda yosh iste'dodlarni tarbiyalashda, qadimiy cholg'u asboblarning tuzilishini takomillashtirish va yangiliklarni yaratishda katta rol o'ynashdi. Yangi musiqa cholg'ulari sekin asta turmushga kirib kelib, o'tgan yuz yillik oxirida ansambllardan mustaxkam o'rin oldi. Musiqa cholg'uchilari tomonidan qo'shiq va raqslarga jo'r bo'lgan holda ham keng foydalanildi, ohanglarni ta'sirchanligini metroritmik bezak qachirimlar bilan to'ldirdi.

Turkiston o'lkasining taniqli tadqiqotchili V.I.Masaliskiy yozadi: "Musiqa cholg'ulari (dutor va g'abs)ni deyarli barcha honadonda uchratish mumkin edi". Bu shunday dalolat beradiki, xalq turmushida oilaviy musiqachilik keng tarqalgan bo'lib, chalishni esa eshitish qobiliyatiga asoslanib o'rgatilgan.

1917 yilga qadar to'plangan musiqa cholg'ulari kolleksiyalarining eng boyi Sirdaryo viloyati musiqa xorligining harbiy kapelmeysteri Avgust Fedarovich Eyxgornikidir. (O'sha paytda harbiy orkestrlar shunday atalgan). U qariyb barcha

o'zbek xalq cholg'ularini to'plagan. Eyxgorn ularni quyidagicha tariflaydi: ikki burilma torli, yarim nok shaklidagi dutorli u lyutnyala guruxiga, g'ijjakni uch torli (fors kamonchasiga o'xshash) torli kamonchali cholg'ulari guruxiga, rubobni esa (Buxoro yoki Avfg'on ruboblari nazarda tutilgan) mandalinalar guruxiga kiritgan. Muallif surnayni kamen puflagichli qadimiy damli cholg'u, qo'shmayni qo'shqamishli fleyta Eyxgorning takidlanishiga bunday fleyta (qo'shmay) ularda o'zbeklar qo'shiqqa mohirona jo'r bo'lgan, karnayni esa tantanali marosimlarda, harbiy yurishlarda xabar beruvchi vositachi, ya'ni to'g'ri shaklga ega bo'lgan O'rta Osiyo axolisining harbiy burg'usi deb ta'riflaydi, chirmanda doirani musiqashunos qadimiy Misrliklarning qo'l litavralarining eslatuvchi chetlarida xalqalari bo'lgan nog'araga (tanbur) kabi qo'shiq va raqs ohanglariga jo'rlikda qo'llaniluvchi musiqa cholg'usi deb ta'riflaydi. Nog'arani Eyxgorn kichik sopol xurmacha va ikki urma tayoqchadan iborat deb ta'riflaydi. Safoyinni u qashqardan keltirilgan xalqalari ko'rinadigan shiqqildoqlar guruxiga kiritadi. Musiqashunos etnograf changni qizlarning sevimli cholg'usi deb aytadi. Eyxgorning kolleksiyada tanbur uch torli noxunli musiqa cholg'usi, nay, sarboz, nay Misr yodgorliklarida uchragan qadimiy cholg'ular sifatida keltirilgan.

Aytish mumkinki, A.F. Eyxgorn har bir musiqa cholg'usiga batafsil ta'rif bergan. XIX asrning ikkinchi yarimidagi folklorshunoslardan biridir, u musiqa nazariy ilmi va folkloriga katta xissa qo'shgan.

XIX asr oxirida xalq orasida mavjud bo'lgan cholg'ularning barcha turlari bir necha zallarda namoyish etilgan. O'sha davrning musiqa tarixchisi N.F.Findeyzen "O'rta Osiyo bo'limi cholg'ulariga eng boy bo'lim edi. Bu erda torli va urma zarbli cholg'ularning yaxshi nusxalarini uchratish mumkin" deb yozgan edi.

Bu davr Turkiston o'lkasi musiqiy xayotida boshqacha ijobiy voqealar ham yuz berdi. O'rta Osiyoga ovro'pa cholg'ulari kirib kela boshladi (simfonik orkestr, damli urma zarbli cholg'ulari orkestrning cholg'ulari fortepiano, dombra nazarda tutilgan). Xorazmda Rossiyadan keltirilgan garmonika paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysi va Toshkentda cholg'uchilar g'ijjakni skripka bilan almashtira boshladilar. O'zbek cholg'ulari ijrochiligi boshqa xalqlar musiqa madaniyati yutuqlari bilan

ham boyidi. XIX asrning ikkinchi yarimida o'zbek xalq cholg'u ijrochiligida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

1.2. Dastlabki o'zbek xalq cholg'u ansambllari va unda kasb mahoratining o'rni.

XIX asr ning ikkinchi yarmida Qo'qon mashxur cholg'uchilar to'plangan markazga aylandi. Bu erda Usta Xudoyberdi raxbarligida O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratiladi. Farg'ona cholg'uchilari Buxoroga shashmaqomni faol o'zlashtira boshlashdi.

Maqomlar ijrosida xonandalar bilan bir qatorda tarkibi turli bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari ansambllari ham ishtirok etdi. Cholg'ular orasida ya'ni ansambliga Buxoroda tanbur va doira Xorazmda esa dutor. G'ijjak, bo'laman, doira yoki tanbur, garmon, dutor doira kirgan.

Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ansambl sakkiz o'n ijrochidan (nay, qo'shnay, chang, rubob, dutor, tanbur, doira, g'ijjak) iborat bo'lgan. Bundan tashqari 3-4 kishidan tashkil topgan kichik ansambllar (nay, g'ijjak, rubob yoki tanbur, nay va doira ba'zan ikkitadan cholg'ular: ikki tanbur, ikki dutor yoki ikki g'ijjak, ikki rubob va boshqalar)dan iborat bo'lgan. O'tgan yuz yillikning 80-90 yillar bo'sag'asida ansambllarning asosiy turlari shakllangan. Ular tarkibigan yangi cholg'ular kiritilgan cholg'ularni tembr imkoniyatlarini kengaytirishga repertuarni folklor asosisda yaratilgan kuylar xisobiga boyitishga urinishlar bo'lgan.

O'z ichiga surnay, karnay, doira va nog'oralarni olgan damli urma cholg'ular ansambllari xon saroylarida beklar xuzurida xizmat qilishgan. Bunday ansambllarga surnaychi (mextar) raxbarlik qilgan. Bu kasbning daromati yaxshi bo'lgan. Ammo ansamblning faoliyati mavsumiy bo'lib cholg'uchilar turli tantanalar kam bo'ladigan qish mavsumida tirikchilik o'tkazish uchun temirchilik, kuruvchilak, duradgorlik va shunga o'xshash kasbni egallashga majbur bo'lishgan.

To'rt damli va urma cholg'udan (karnay, doira, nog'ora) tuzilgan ansambllar Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Xorazm va O'zbekistonning boshqa shaharlarida turmushga juda keng yoyilgan. Ular xalqning ijtimoiy xayotida (umumxalq an'anaviy bayramlarida) va oilaviy hayotda faol qatnashgan. Ayni paytda yakka cholg'u asbobi – surnayning imkoniyatlari xisobga olinib,

maxsus ijrochilik repertuarlari (“Surnay irog’i”, “Surnay dugoxi”, “Surnay Kalandoriy”, “surnay navosi” kabilar) anchagina shakllangan edi.

Bu ansambllardan tashqari nay, qo’shnay, chang, dutor, tanbur, g’ijjak, doiralardan iborat boshqa tildagi o’zbek xalq cholg’ulari ansambllari ham mavjud bo’lgan. Odatda bunday ansambllarga qo’shiqchi va o’yinchi kirgan. Ular choyxonalarda, to’ylarda, bazmlarda xizmat qilishgan. Bunday musiqachilarni xalqda “otarchi” deb atashgan. Bu ansambllar “Karimqulbegi”, “Rok”, “Qashqarcha”, “Latifa”, “Mustaxzod”, “Suvora”, “YAlla”, “Dilxiroj”, “bayot”, “Munojat”, “Jalon”, “Tanovor”, “Tarona”, “Ufor”, “Urofi mushkuloti sevari” kabi ashula va raqs kuylaridan iborat turli repertuarlarni ijro etishgan. Bunday ansambllarning choyxonalarda o’tkazgan konsertlariga ko’p sonli tomoshabinlar to’planishgan.

1917 yil to’ntarishidan keyin o’zbek musiqa san’ati jadal va jo’shqin taraqqiy qila boshladi. Birinchi o’n yilligidayoq musiqa ta’limi folklorshunoslik, ijrochilik san’ati sohalarida muhim o’zgarishlar bo’ldi. Musiqachi ijrochilar qayta tuzilgan madaniy-ma’rifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketishdi.

Taniqli tanburchi va xonanda Shoraxim Shoumarov 1919 yilda Toshkentdagi “Namuna” maktab-internati qoshida xalq cholg’ulari ansamblini tuzdi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqali texnikumini tashkil qilish uchun asos bo’lib xizmat qildi. 20-yillarda o’quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarida “Ko’k ko’ylak”, “San’atchi qizlar”, “Sanoyi nafisa” kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi, dutorchi, tanburchi, g’ijjakchi, doirachi, nog’arachilar va qashqar rubob sozandalari bo’lgan xalq cholg’ulari ansambllari ham bor edi.

Xalq cholg’ulari ansambllari Farg’onada, Qo’qonda, Andijonda, Samarqandda, ham tuzilgan. Ularga mashxur cholg’uchilar Usta Olim Komilov, To’xtasil Jalilov, Axmadjon Umrzaqov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Ro’zimat Isaboev, Matyusuf Harratov, Usta Toyir, Ma’rufjon Toshpo’latov, Muxiddin Mavlonovlar raxbarlik qilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli o’zbek xalq cholg’ulari ijrochilik san’atidan ko’pchilik baxramand bo’ldi.

1926 yilda O'zbek musiqa madaniyati tarixida ilk bor 21 ijrochidan iborat davlat sayyor konsert etnografik truppasi tashkil qilinadi. Mazkur ansamblga Farg'ona vodiysining o'sha davrda mashxur bo'lgan usta cholg'uchilari xonandalari raqqos va raqqosalari ishga taklif etilgan edi. CHolg'uchilar tarkibi ansamblning eng nufuzli qismi bo'lib ijodiy jamoaning o'zagini tashkil qilar edi. Muxiddin Qori Yoqubov ijodiy tashabbuskorligi katta tashkilotchilik qobiliyati tufayli ushbu ansamblni taniqli ijrochilaridan tuzishga muvofiq bo'ldi. Bular Yusufjon qiziq Shakarjonov (nog'ora raxbar), Usta Olim Komilov (doira), To'xtasin Jalilov (g'ijjiak), Axmadjon Umrzaqov (qo'shnay), Abduqodir Ismoilov (nay), Otaxo'ja Saidazimov (dutor), Xayit-Oxun (tanbur), Muxiddinxoji (tanbur), Mamatbobo (doira), Xudoyberdi (surnay), Madaminjon Isxoqov (bo'lamon) va boshqalardan tashkil topgan edi. CHolg'uchilardan tashqari ansambl qatnashchilari orasida taniqli raqqasa va xonanda Tamaraxonim, xonanda Jo'raxon Sultonov, o'yinchi Xoji Siddiq Ismoilovlar ham bor edi. Muxiddin qori YOqubov, YUNus Rajabiylar o'zbek xalq ansambllarining ilk raxbaridan bo'ldilar.

Muxiddin qori YOqubov ikki yil mobaynida olti yuzga yaqin o'zbek xalq ijodidaa ashula va raqs kuylarini namunalarini yozib olib, katta o'yin turkumidagi musiqa raqs syutasini qaytta tikladi. Ansambl qatnashchilari shu namunalar asosida konsert dasturi tuzib, 1926 yil aprelida uni musiqa jamoatchiligiga namoyish etdi. Tez orasida ansambl O'rta Osiyo shaharlari shuningdek Moskva, Leningrad, Baku, Qozon, Ufa shaharlari bo'ylab konsert safariga jo'nab ketdi.

Respublikada ilk musiqiy etnografik ansamblning tuzilishi uni muvofaqqiyatli konsert chiqishlari o'zbek xalq musiqasining to'planishi nixoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ansambl repertuarining xalq kuylari va zamonaviy bastakorlarning asarlari ("Bayot", "Dugox", "Ushshoq", "Navro'zi ajam", "Ilg'or", "Tanovar" va boshqalar) tashkil etar edi. Qori YOqubov va Tamaraxonim ("Ililla - yor", "Omonyor") singari xalq qo'shiqlarini duet tarzida kuylashgan.

Musiqa etnografik gruppaning konsert chiqishlariga vaqtli matbuot o'z munosabatini bildirdi. Jumladan, "Leningradskaya pravda" ro'znomasining 1927 yil 11 may sonida quyidagilar yozilgan: "O'zbek artistlarining chiqishlarini buyuk

voqea deb atash mumkin. Bizning yangi shakl va mazmuni talab etuvchi san'atimizga xayotbaxsh etuvchi bitmas tunganmas man'alar shu erda".

Ha haqiqatdan ham ansambl cholg'uchilarining ifodali va ta'sirli ijrosi yorqin o'ziga xos edi. Ular tinglovchilarni o'z harorati, samimiyligi, quvnoqligi bilan jalb etishgan.

Ko'pgina shaharlar bo'ylab qilinadigan gastrol safarlari ansambl obro'sini yanada oshirdi. Jamoa ayniqsa o'z safini yosh cholg'uchilar bilan to'ldirgandan so'ng ijodiy jihatdan mustaxkamlandi. Yosh ijrochilar orasida honandalar Gavharxonim Petrosyanin Begimxonni va Nurxon Yo'ldoshxo'jaeva, Boboraxim Mitzaev, changchi Po'lat Raximov, artistlar Zuxr Qobulov, Nizom Xaydarovlar bor edi. Ansambl 1927 yil iyulgacha faoliyat ko'rsatdi. SHu jamoa asosida keyinroq 1929 yilda birinchi o'zbek davlat musiqa teatri tuzildi.

O'zbek xalq musiqa an'alarining davomchisi, Toshkentchilik mohir xalq cholhuchisi dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiy (1897-1976) ijodiy faoliyatiga ma'rifatparvarlik, keng musiqiy – ijtimoiy xususiyatlarga xos edi.

1926 yilda Yunus Rajabiy Toshkentda "Uchqur" va "Namuna" nomidagi umumiy ta'lim maktablari qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari ansambllariga bevosita boshchilik qiladi. Qisqa vaqt ichida u iqtidorli o'quvchilardan ansambl tashkil qiladi, ular orasida dutorchilar Orif Qosimov, Maxmud Yunusov, Zokirjon Sodiqov, naychi Jamil Kamolov kabi mohir cholg'uchilar bor edi. Yosh Yunus Rajabiyda endilikda shaharda e'tiborliroq ansambl tuzish g'oyasi tuziladi.

1927 yilda Yunus Rajabiy O'zbekiston radio qo'mitasi qoshida 12 cholg'uchi (xonanda va sozanda)lardan iborat xalq cholg'ulari milliy ansambli tashkil etadi. Bu ansamblga u Toshkentdagi o'sha paytda mashxur musiqachilar- qo'shmaychi Xayrulla Ubaydullaev, dutorchi Abdusoat Vaxobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajabov, Maxsud xo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Iymonjon Ikromov, Nabi Xusanov, Maxmud Yunusov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kamolov, changchilar Nig'matjon Do'stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Rasulov, doirachi Dadaxo'ja Sottiyevlarni jalb etdi.

Ansambl repertuarida o'zbek xalq kuylari bilan bir qatorda zamonaviy bastakorlarning, jumladan Yunus Rajabiyning "Chorgox", "Ko'cha bog'i", "Bayot", "Birlashingiz", "Fabrika", "G'alaba", "Hamмамiz", "Ilg'or", "Mirzadavlat" kabi asarlari bor edi. Keyinroq bu ansamblida Respublikaning mashxur xonandalari Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Buxorolik domla Xalimbodov, Samarqandlik dutorchi va xonanda Xoji Abduraxmon Kimarov, Xorazmlik tanburchi va xonandalar Matyoqub Xurratov, Safo Mug'ayni, Toshkentlik Nazira Axmedov kabi san'atkorlar ishlaydi. Ayni paytda ansamblning ijrochilik repertuari "Shashmaqom"ning mushkulot va nasr qismlari: "Nasrulloiy", "Navro'zi Sabo", "To'lqini Ushshoq", "Sarvinoz" talqincha. Sh uningdek bastakorlarning "Uyg'oning", "Bizning qishloq", "Yashasin", "Kolxozim" kabi asarlar xisobiga kengaydi.

Ijrochilik repertuarini rang-barang qilishga intilish, jaxon madaniyati asarlariga murojaat qilish ansamblga ko'zga ko'ringan san'at ustalarining va iste'dodli yoshlar oqimini olib keldi. SHu maqsadda ansamblga Usta Usmon Zufarov tayyorlagan g'ijjak bas, g'ijjak alt, dutor bas va tanbur kabi cholg'ulari kiritildi. Bu orkestrning umumiy cholg'u diapazonini kengaytirish imkonini berdi.

Yillar davomida ansambl o'sdi, rivojlandi, takomillashdi. 1927 yildan boshlab ansambl turli konsert dasturlari bilan radio orqali chiqib, cholg'u ijrochiligi soxasidagi yutuqlarni targ'ib qila boshladi. Ansambl faoliyati keng jamoatchilik e'tiborini qozondi, O'zbekistonning eng yaxshi musiqiy jamoalari safidan joy oldi. O'zbekistonning mashxur yakkaxonlari va yakkanavoz cholg'uchilari u bilan yaqindan ijodiy aloqa o'rnatishadi. U konsert-ijrochilik, ijodiy (zamonaviy qo'shiq va kuylar yaratish) va pedagogik yo'nalishlarda ham faoliyat ko'rsatdi. Ansambl keng tinglovchilar orasida katta musiqiy ma'rifiy ishlar olib bordi.

XIX asr oxiri XX asr boshlari adabiy manbalar va sur'at materiallari ansambl ijrochiligining keng tarqalganiga guvoxlik beradi. Bu vaqtda va asr o'rtasida O'zbekiston (Tojikiston bo'lgani kabi) cholg'u ansamblarining damli va zarbli cholg'ular (karnay, surnay, doira, nog'ora, katta baraban) va aralash (torli

cholg'ular doira va nay, qo'shnay, bo'lamon kabi damli cholg'ular) kabi ikki turi bo'lgan.

Damli va zarbli cholg'ular ansambli maishiy turmushda va ijtimoiy xayotda doimo faol ishtirok etib keldi. Uning harbiy musiqa, xalq raqs kuylari, xalq tomoshalariga jo'r bo'ladigan cholg'u p'esalaridan iborat repertuari shakllandi. U ko'pincha "Sarbozchi", "Suvora", "Duchava", "Darboz", "Charx", "Askariy", "Norim-norin" kabi marsh yo'sinidagi asarlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Aralash (xonaki) ansamblarning chiqishlari odatda konsert yo'sinida bo'lar edi. Ular choyxonalarda, xonadonlarda chiqishlar qilishgan, to'ylarda va boshqa oilaviy tantanalarda xizmat qilishgan. Bunday guruxlar tarkibiga odatda qo'shiqlar ba'zan bir necha o'yinchi ham kirgan. Cholg'uchilar repertuari "Azim daryo", "Gulbahor", "Dilxoroj", "Dutor bayoti", "Jonon", "Ilg'or", "Rog' qashqarchasi", "Samoiy dugox", "Tanovar", "Chaman yalla", "Cho'li iroq", "O'zgancho", "Qalabandi ufori", "Xanuz", "Mushkuloti dugox", "Mug'ilchasi" kabi ashula va raqslardan kuylardan hamda rivojlangan cholg'u p'esalaridan iborat bo'lgan.

Shu turdagi unison ansambllar turg'unlasha bordi va hozirda ham mavjud. Dutor, tanbur, changlar unison kuylarni ijro etishda juft torlarni chertganda ko'p ovozlilik unsurlari hosil bo'ladi. Bunda kvarta, kvinta, oktava intervallari hosil bo'ladi. Shunday ansambllardan biri To'xtasin Jalilov raxbarligi tarkibida 98 ijrochi bo'lgan "Etnografik unison ansambl" edi. Ansamblda ilk bor Usta Usmon Zufarov tomonidan rekonstruksiya qilingan katta g'ijjak, katta dator, past registli cholg'ular qo'llanildi. Keyinroq ushbu ansambl negizida Nikolay Nazarovich Mironov 24 cholg'uchidan iborat "Nota" orkestri tuzadi.

O'z davfilarmoniya qoshida Tamaraxonim tashabbusi bilan qo'shiqchilar, o'yinchilar, cholg'uchi-ijrochilardan iborat yana bir ansambl tuzildi. Ansambl ijrochiligi urishdan keyingi davrda taraqqiy qildi. Ansamblni yanada ommalashtirish maqsadida xalq qo'shiqlari va raqslarini eng yaxshi namunalarini to'pladilar va qayta tikladilar.

Yangi davr yangi g'oyalarni paydo qildi. Cholg'ularni rekonstruksiya qilish va takomillashtirish ansambl ijrochiligi taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ularning

yangi turlari paydo bo'ldi. Shunday qilib 30 yillarda barcha turdagi cholg'ularni o'z ichiga olgan an'anaviy katta unison ansambllar tuzildi. Ular yordamida cholg'ularni badiiy ifodaviy imkoniyatlarini yanada boyitish va ular ko'lamini kengaytirish, tovush kuchini oshirish kabi murakkab ijodiy vazifalar hal qilindi.

Pedagoglik kasbi boshqa kasblardan xarakterli belgilari bilan farq qiladi. Pedagogning mehnat fani odam, mehnatning maqsadi, insonni qayta o'zgartirish, pedagogning mehnat qurollari-uning nutqi, tafakkuri, irodasi, xarakteri v.x. pedagogning mehnat sharoitlari uning ma'naviy siyosiy qiyofasiga qo'yiladigan yuksak taraflar bilan xarakterlanadi, uni doimo takomillashishiga, to'xtovsiz o'z ustida ishlashga majbur etadi. Yaxshi pedagog doimo o'z o'quvchilari va ularning ota-onalari xurmatini qozongan bo'ladi.

O'qituvchi maxsus pedagog maxoratga ega bo'lgan va umumta'lim maktabida ta'lim va tarbiyaga doir muayyan ish olib borayotgan kishidir. O'qituvchi so'zi ancha umumiy ma'noga ham ega. Boshqalardan bilim, ko'nikma, malakalarini tarkib toptirayotgan, xayotda murabbiylik qiladigan va xayotga yo'llaydigan hamda pedagog faoliyati bilan shug'illanadigan hamma kishilarni pedagoglar deb ataydilar. SHunday qilib, o'qituvchi va pedagog sinonim so'zlardir.

O'qituvchilik kasbi qiyin kasb. Qiyinchiliklardan biri shundan iboratki, tarbiyaga doir ish natijalari darhol namoyon bo'lmaydi. Bu ish katta sabot-matonat va chidamni talab etadi. Yosh avlodni xayotga tayyorlash jarayonida o'qituvchilar faol ishtirok etadilar. Ular tajribani bir avloddan ikkinchi avlodga berish bilan avlodlar vorisligini ta'minlaydilar. YAngi avlodni biror maqsadga qaratilgan holda boshqarish va tarkib toptirsh jarayoni ro'y bermaganda jamiyat o'z rivojlanishida to'xtab qolar edi. O'qituvchilar ana shu jarayonni asosiy ishtirokchilaridir.

Xar bir fan o'qituvchisi singari musiqa o'qituvchisi shaxsning qimmatiga baho berish tizimida uning professional yo'nalishi muhim ro'ly o'ynaydiki, uning negizida pedagog faoliyatiga bo'lgan extiyoj yotadi. U o'zida: bolalarda qiziqish va muxabbatni, pedagogik ishiga xavasni, psixologik-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlikni, pedagogik odobni, pedagogik tasavvurni, tashkilotchilik, qobiliyatini, xaqqo'ylikni, dilkashlikni, talabchanlik va qat'iylikni,

sobitqadamlikni, vazminlikni, chidamlilikni, o'zi xaqida fikrga ega bo'lishni, professional ish qobiliyatini va qiziqishni, intellektual faollikni, yangilikni xis eta bilishni, pedagogik bilimni mustaqil ravishda oshirishga tayyorgarlikni mujassamlashtiradi.

Musiq va raqs xissiyotini, ayniqsa, emotsional, estetik xissiyotni faol rivojlantiradi. Musiq bola ruxiga faol ta'sir etadi, uning axloqiy estetik qiyofasini shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatini tarkibiy qismi bo'lgan musiq madaniyatini tarbiyalash musiq tarbiyasini bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun musiq o'qituvchisi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- o'quvchilarda musiq san'atiga bo'lgan qiziqishni oshirish
- musiqiy-badiiy didini va musiq faoliyatlariga extiyojni rivojlantirish
- musiq haqida bilim va malakalar doirasini tarkib toptirish
- musiq faoliyatlari jarayonida badiiy ijodkorlik xis-tuyg'ularini rivojlantirish
- asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash
- musiq darslari jarayonida kasb-xunar va mehnatga xavas uyg'otish

Mana shu vazifalarni amalga oshirishda musiq o'qituvchisining professionallik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng avvalo, musiq o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga chin qalbdan mexr qo'ygan, yuksak madaniyatli, ijodkor va izlanuvchan, ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U hozirgi zamon fan texnika talablariga muofiq yaxshi dars berishi va uning xar daqiqasidan unumli foydalanishi zarur. O'z ustida ishlashga o'rgangan, hozirgi fan-texnika rivojlangan hamda axborotlar ko'paygan davrda ular ichida o'z fani uchun kerakli narsani tanlab topa-oladigan o'qituvchigina o'quvchilarni bilish, mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini o'stira oladi.

Musiq o'qituvchisi yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogika va psixologiya, bolalar fiziologiyasi, estetika va etika nazariyasi, adabiyotni hamda musiq o'qitish metodikasini yaxshi bilmog'i lozim. Chunki bular bolalarning xarakterini, nimaga

moyilligini o'qitish jarayonida qanday usullardan foydalanish mumkinligini belgilab beradi.

Musiqqa o'qituvchisi musiqqa san'atining nazariy va amaliy soxalaridan yetarli darajada bilim, malaka va tajribaga ega bo'lmog'i lozim. Chunki bular bolalarning xarakterini, nimaga moyilligini, o'qitish jarayonida bunday usullardan foydalanish mumkinligini belgilab beradi.

Musiqqa o'qituvchisi musiqqa san'atining nazariy va amaliy soxalaridan etarli darajada bilim, malaka va tajribaga ega bo'lmog'i lozim. Yani u ham cholg'uchi, ham honanda, ham dirijor, ham jo'rnavozchi va ham musiqqa nazariyotchisi va adabiyotchisi sifatida ish ko'rmog'i lozim. Musiqqa o'qituvchisi ijodkor sifatida u bir soatlik darsiga senariy avtori, uning artist-ijrochisi va rejissyori hamdir, shu sabab musiqqa darsi san'at darsidir.

O'qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo'lishi bilan birga bu kasb adabiyot va san'at soxasidagi bilimlarga ega bo'lishni ham talab etadi. Musiqqa o'qituvchisi pedagoglik odobiga rioya qilishi kerak. Pedagoglik odobi o'qituvchilik kasbiga xos fazilatlardan biri bo'lib, u o'qituvchining bolalar bilan ishlash jarayonida maxorat sifatida yuzaga chiqadi. Pedagoglik odobi o'qituvchining o'zini tutishi, o'quvchilar bilan muomalasidagi professional, psixologik-pedagogik xususiyatidir. Pedagoglik odobi- bu o'qituvchining sharoitga qarab to'g'ri pedagoglik yo'l, metod izlashi, o'quvchilar bilan muomalada o'zini tutish yoki odobidir.

«Musiqqa o'qituvchisining ma'naviy va ahloqiy qiyofasi. Unga qo'yilgan zamonaviy talablar»

2. O'quvchilarning ahloqiy tarbiyasining maqsadi, vazifasi va mazmuni

4. Musiqqa o'qituvchisi va unga qo'yilgan talablar.

Ahloqiy tarbiya - bu hayotning turli sohalarida va insonlar bilan munosabatda shaxsning xarakteri va hulq-atvoriga xalq ommasining munosabatlarini ifodalanishi. Insonning Vatanga, Mehnatga, moddiy ne'matlarga, oilaga boshqa kishilarga hamda o'ziga munosabati va mazkur o'ziga ahloqiy munosabatlarini tarbiyalash, ahloqiy tarbiya g'oyalarini tashkil qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Al- Farobiy musiqaning shaxs kamoloti shakllanishiga ijobiy

ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan (ya'ni musiqa-D.O) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol yetmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. ... Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir.» Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy ham musiqa san'ati ulkan tafakkur manbai, usiz bolaning aqliy rivojlanishiga erishib bo'lmasligini e'tirof etgan. Zotan, har bir musiqa asarida ijodkorning ma'lum g'oyasi yoki biror badiiy mazmun bo'ladi. Musiqaning mazmuni o'quvchining g'oyaviy emotsional xissiyoti faol kechishi natijasida idrok etiladi. Shuning uchun to'g'ri tarbiyalangan musiqaviy-badiiy did musiqa asarining g'oyaviy va badiiy mazmunini chuqur anglashda katta rol o'ynaydi. Demak, ahloqiy va aqliy-g'oyaviy tarbiya badiiy tarbiyaning ichki mazmunidir. Bu vazifani amalga oshirishda xalq musiqasi va kompozitorlar asarlarining mohiyatini, ularning tuzilish jihatidan farqini, milliy xususiyatlarini hamda janr tuzilishlarini o'rganish zarur. Bunda atoqli san'atkorlar ijodi bilan tanishish, ular yashagan davrni bilish, ular yaratgan asarlarni musiqiy-pedagogik jihatdan tahlil etib o'rganish, mashxur asarlar taqdiri va tarixi bilan tanishish muhim rol o'ynaydi.

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy jihatdan yaxlit ta'surot qoldirishi uchun ularni ma'lum mavzu asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonuniyatlari, ijrochilik turlari yoki uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanishi mumkin. Masalan «Lad nima?», «Xalq musiqa ijodi», «Bastakorlik va kompozitorlik ijodi», «Musiqiy-epik dostonlar». «Katta ashula janri», «Maqoinlar», «O'zbek musiqasida ijrochilik uslublari», «Musiqaning oddiy shakllari», «Qo'shiqlarda kuplet shakllari», «Syuita shakli», «Simfonik asarlar janrlari, «Musiqiy saxna asarlari» va boshqalar shular jumlasidandir.

Garchi mazkur mavzu tizimi uslubi yangi dastur tarkibida ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, ammo bu narsa keng o'qituvchilar tajribasiga ham tayangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Asarni badiiy yaxlit idrok qilish, ikkinchidan, dars tuzilishiga ham bog'liq. Darsda turli musiqiy faoliyat turlarini (musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa savodi) asarni musiqiy-pedagogik tahlil etish, musiqaning badiiy xususiyatini ayrim harakatlarda ifodalash va hokazo yagona maqsad sari yo'llash va bu bilan darsni mazmunan qiziqarli tashkil etish lozim. Shu boisdan musiqa darsi kompleks dars tipiga kiradi. Darsda faqatgina ashula aytib bolalarni zeriktirishga yo'l qo'ymaslik lozim. Bu ularning qiziqishini so'ndiradi va ovoz apparatlariga ziyon yetkazadi.

2. O'zbekiston mustaqil davlatga erishgan bir sharoitda ma'naviy va ahloqiy tarbiya qator omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko'rinadi. Ahloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxiit xolga keltiradi. O'zbek xalqining moddiy va madaniy darajasining ko'tarilishi yangi ahloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining sotsial bazasini kengaytiradi, shaxs extiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi. Ahloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsni ahloqiy shakllantirishdir. Ahloqiy tarbiyaning mazmuni avvalo o'quvchilarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Ahloqiy tarbiyaning mazmuni o'quv dasturlari va darsliklarga joylangan bo'lib, u o'quv jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, xor darsda kuylash uchun mo'ljallangan qo'shiqlar repertuaridan ona-Vatanga, boy tabiatimizga, xalqimiz mehnati va hayoti bilan bog'langan turli bayramlarga, ahloq-odobga keng o'rin berildi. Tanlangan qo'shiqlar xilma-xil janrda bo'lib, ular ko'proq milliy musiqamizdagi lirik qo'shiqlar, xazil-mutoiba tarzidagi qo'shiqlar, bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar o'yinlarini o'ynash uchun mos keladigan kuy-qo'shiqlar, marsh va vals kuylarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, dasturga qardosh va chet el kompozitorlari asarlari chet el xalqlarining qo'shiqlari asarlari qo'shiqlaridan namunalar ham kiritildi. Bu qo'shiqlarning g'oyaviy, ahloqiy va estetik mazmunini o'quvchilarga yaxshiroq singdirish uchun mavzuga mos kirish, ahloqiy suhbatlar,

savol javoblar kabi usullardan ijodiy foydalaniladi. Berilgan mavzularni oson o'zlashtirish uchun ifodali o'qish, mavzu asosida rasmlar chizish, ularni tahlil qilish, eski ro'znoma va oynomalardan mavzuga doir rasmlarni kesib yopishtirish kabi usullardan ham keng foydalanish tavsiya qilinadi. Ahloqiy tarbiya yoshi va o'quvchining to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni ham hisobga olganda, shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ahloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi:

Inson hayoti va madaniyatining ahloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur beradi. Ahloqiy bilim asosan ahloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar mavzuiy kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, o'quvchilar konferentsiyasi va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

3. O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avvalo insonparvarlik, kamtarinlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, do'stlik, birodarlik, poklik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan hozirda ma'naviy tarbiyani yoshlarda shakllantirish dolzarb vazifadir. O'zbek milliy qo'shiqlarini meromiga yetkazib kuylash, tinglovchilarning yuragiga ta'sir qildirish - bir san'at, u san'atdan bahra ola bilish ham katta iste'dod bo'lib qoldi. Shuning uchun keksa san'at ustalarimizni tinglay olish, ularni ardoqlash, e'zozlash, oqibatli bo'lishni yosh avlodga o'rgatish, biz o'qituvchilarga katta vazifa yuklaydi. O'qituvchi-ustozning mahorati o'z o'quvchisini har bir ishni bajarishga majbur etishida emas, balki uni bu ishni o'z xoxishi-irodasi bilan, tushunib quvonch bilan bajarishga ragbatlantirishdadir.

Ma'naviy tarbiyaning bir nechta jihatlari mavjud. Shuning bir qirrasiga ya'ni musiqiy ta'sir orqali yuksak insoniy xis-tuyg'ularni shakllantirish masalalariga ozgina to'xtalamiz. Asrlar osha yetib kelgan xalq hayotini ko'rsatuvchi qo'shiq va kuylar juda ko'p. Ular xis-xayajon uyg'otuvchi, mazmuni jihatidan esda qoluvchi, ta'sirchan kuchga egadir. Ularni har bir inson uchun qimmatli ahamiyatga ega ekanligini allomalarimiz uqtirib kelganlar. (Yo alxazar, ey musiqa olami, yaxshiyam sen borsan, agar sen bo'lmaganingda insonlarning ahvoli nima kehardi, - deb xitob qilgan edi, - Farobiy)

Farobiyning fikricha musiqa kishini ruxlantirib umumiy ma'naviy kamolotga yetishishida ijobiy rol o'ynaydi. Shuningdek, uning salomatligiga foydasi boligini aytib o'tadi. Musiqa sadolar ta'sirida asab tartibga tushadi. Kuylarning harakatiga uning ritm holati bilan tomir urishi mos ravishda kelishini ham hisobga olgan Ibn Sino va ohangni bola qalbiga estetik ta'siri haqida qimmatli fikrlarini aytadi. «Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish bu insonning aqliy va ma'naviy kamolga yetkazish jarayonidir.» Ma'maviy tarbiyani yo'lga qo'yishda quyidagi talablarni hisobga olish zarur:

1. Sharq allomalarining musiqa va musiqiy tarbiyasiga bag'ishlangan asarlardan keng foydalanish;
2. Ijodkor keksa avlodlarimizdan foydalanib qolish, tilarning ishini davom ettiruvchilarni tayyorlash kerak;
3. Pedagogik amaliyot davrida quyidagilarga ahamiyat berish lozim:
 - a) maktablardagi musiqa darslari va sinfdan tashqari ishlarni uzviy bog'lab olib borish;
 - b) B.M.M.da o'qiydigan bolalarni faol ishtirok etishlarini tashkil qilish;
 - v) Radio, televideniyaning musiqiy eshittirishlari va ko'rsatuvlarlaridan unumli foydalanish;
 - g) Ijodkor o'quvchilar bilan tanlovlar o'tkazib borish, saxna harakatini o'rgatish;
 - d) Tarix, san'at muzeylariga sayohatlar uyushtirish;
 - e) Milliy musiqa merosimizdan foydalanish milliy madaniyatga havasni shakllantirish;

Bu so'zlardan hozirgi yoshlarimiz ibrat olsalar, o'z ijodlariga tanqidiy ko'z bilan qarasalar, ustoz-o'qituvchilar orqasidan ergashsalar madaniyatimiz yangi pog'onaga ko'tarilar, jahon bo'ylab qo'shiqlarimiz, kuylarimiz taronalar, ma'naviyatimiz yanada boyib borardi.

4. Musiqa o'qituvchisi yuksak madaniyatli, o'z kasbiga cheksiz sadoqatli, ilg'or pedagogik tafakkur egasi bo'lmog'i lozim. U o'zi uzluksiz kasbiy va madaniy rivojlanish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. U pedagogika, ruxshunoslik, musiqa o'qitish metodikasi, estetika nazariyasi fanlaridan xususan musiqa o'qitishni

chuqur bilishi va malakalar egasi bo'lmog'i darkor. Ayniqsa, unda musiqa o'qituvchisi ixtisosi zarur me'yorida cholg'uchilik, honandalik va musiqa nazariyatchiligi sifatleri mujassam bo'lmog'i lozim.

Musiqa o'qituvchisi pedagog muloqot ustasi bo'lishi har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Hozirgi musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi izlanuvchan va ijodkor bo'lib musiqa o'qitishlar yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'i lozim. U musiqa ta'lim tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog'lab, boyitib olib borishi darkor. Izlanuvchan, ijodkor o'qituvchilar tajribasi va kashf etgan yangi usullari musiqa ta'lim-tarbiyalar doimiy ravishda rivojlanishlar asosiy tayanchi va ilxom manbaidir. Musiqa o'qituvchisi san'at ziyolisi sifatida maktabda musiqiy ma'rifiy ishlarning sardoridir.

II BOB. YOSH IJROCHILAR HAMDA YOSH BASTAKORLAR IJODINI O'RGANISH ORQALI IQTIDORLI O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISH.

“Ishonchim komilki, yillar o'tib avlodlarimiz bizning xalqimiz mustaqilligi yo'lida, uning tinch bunyodkorlik mehnatini himoya etish yo'lida qilgan ishlarimizga munosib baho beradi.”

I.A.Karimov

Mustaqillik xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarini erkin tanlash va rivojlantirishdir. Uning negizini milliy erkinlik tashkil qiladi. Jamiyatda sovet davridan farqli yangi mustaqil dunyoqarash va milliy mafkura qaror topmog'i hayotiy ehtiyojdir.

Mustaqillik dunyoqarash eng avvalo, O'zbekiston taraqqiyotining umumijtimoiy nazariyasini qamrab oladi. Zero, u qurilayotgan jamiyatning maqsadlarini va asosiy arkonlarini ilmiy asoslab bermog'i lozim. SHuningdek, u O'zbekiston xalqining munosib hayot kechirishini ta'minlovchi iqtisodiy, siyosiy, axloqiy-estetik va boshqa ijtimoiy qadriyatlarining me'yorlari hamda ideallarining yangi tizimi bo'ladi.

Dunyo xalqlari ma'naviy xazinasiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor xalqimizning badiiy so'z sehrini o'ziga jo qilgan, ko'ngil chashmasidan qaynab chiqqan injular bamisoli jo'shqin daryoga o'xshaydi. Xalq qalbining navolari, dilrabo qo'shiqlari an'ana va marosimlarga aylanib, asrlar davomida ajdodlarimiz badiiy dahosining muhtasham qadriyatlari xazinasini yuzaga keltirgan. Badiiy tafakkurning betakror mo'jizalarini o'zida mujassamlashtirgan xalq an'analari, rasm-rusumlar, marosim va odatlar, og'zaki poetik ijodiyot namunalari shu muqaddas zaminda ming yillar mobaynida yashab kelgan, ota-bobolarimiz iqtidori va chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o'laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatdir.

An'analari xalqimizning o'zi kabi umrboqiy, mehdaryo qalbi misol jonbaxshdir. Yurtimizning har bir go'shasida o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog'liq an'analari, momolarning mehr bulog'idan qaynab

chiqqan orombaxsh allayu olqishlari mavjud. Xalq an'analar va marosimlari jo bo'lgan asriy qadriyatlar, ma'naviyat ko'zgasiga aylangan qanotli orzulari folklor ijrochilarining ko'p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida sayqallanib, barkamollashib kelgan. Bamisoli kamalak jilosidek dillarga ezgulik baxsh etuvchi qadimiy marosimlar hamda xalq an'analarini chuqur o'rganish milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash, tushunish imkonini beradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash, unutilgan an'analarni keng ommalashtirish va ularni chuqur o'rganish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Zero, O'zbekiston xalqining qadimgi urf-odat, an'ana va marosimlarga alohida e'tibor berishi ma'naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega edi. Chunki, kishilarni yangicha ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy mustaqillik g'oyalarini chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ'ib qilishda, an'ana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni, ayniqsa, yoshlarga chuqurroq tushuntirish, milliy istiqlol mafkurasini keng omma orasiga yoyishning ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

Jamiyat rivoji davomida kishilarning o'zaro munosabatlari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot qonuniyatlari asosida muayyan urf-odat va ma'nosimlar tizimi shakllanadi. Asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida xalqona, milliy xususiyatlarni aks ettirgan an'ana va marosimlarga saqlanib, takomillashib kelaveradi. Xalqning milliy ruhiyati va mentaliteti ham uning marosimlari hamda og'zaki badiiy ijodiyotida o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, an'ana va marosimlar xalqning ulug'vorligini, uning milliy qadr-qimmatini va mehnatsevarlik, erksevarlik, do'stlikka sadoqatni, boshqa xalqlarga hurmat, Vatanga muhabbati-yu, dushmanga nafrat kabi xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Xalqning eng yaxshi an'analari insonparvarlikni, jamoa bo'lib ishlash va kamtarlikni, mehmondo'stlik va kattalarga hurmatni, asrlar davomida mehnatkash xalq orasida rasm-rusumga aylangan boshqa ijobiy xislatlarni o'zida gavdalantiradi.

Yurtimiz istiqloqlga erishgan shu saodatli bugungi kunda mamlakatimiz xalqlarining an'ana va marosimlari o'zining qadimiy ko'rinishlarini tiklab, jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtiradigan buyuk kuchga aylanmoqda. Yurtdoshlarimizni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'sirchan omil bo'lib xizmat qilmoqda. Davrimiz kishilarining dunyoqarashlariga mos tushadigan, ularning hayotiga shodlik, quvonch bag'ishlaydigan, ularda mustaqillik va uning mevalaridan faxrlanish hissini uyg'otadigan an'ana va marosimlar keng ommalashmoqda.

O'zbek xalqining madaniy merosida xalq ijod qilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan turli bayramlar, ommaviy o'yinlar, mavsumiy, kasb-hunar marosimlari va ularda ijro etiladigan musiqalar, folklor qo'shiqlari alohida o'rin egallaydi. Bayramlar, marosimlar ijtimoiy, shaxsiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi, kishilar o'zaro munosabatlarining turli jihatlari va shakllarida namoyon bo'luvchi muayyan urf-odatlar, an'analar, axloqiy qoidalar hamda xuquqiy targ'ibotlarning tarixan shakllangan yig'indisidir. Ularning muhim belgilari xususiyatlarining barqarorligi, ommaviyligi, rivojlanishidagi takroriyliigi, davomiyliigi va uzluksizligidadir. Odat tusiga kirgan marosimlar kishilar xulq-atvorini boshqarar ekan, nafaqat jamoatchilik fikrlar nufuziga, balki qabul qilingan va qaror topgan qonun-qoidalar kuchiga ham suyanadi.

O'zbekiston xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayram va marosimlari o'zida kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarini, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bunday an'ana va marosimlarda mamlakatimiz xalqlarining milliy ruhiyati, ma'naviyatining qadimiy ildizlari ham namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan an'ana va marosimlarda Vatanga sadoqat, yoshi kattalarga hurmat, ota-onaga, etimlarga, qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini, ayollar sha'nini ehtiyotlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yod etish kabi ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan qadriyatlar mujassamlashgan.

Endilikdagi asosiy vazifamiz mustaqilligimizni mustahkamlash, Vatanimizning porloq istiqbolini yaratish, ilg'or mamlakatlar qatoridan o'rin olish, xalqimizning turmushini, madaniyatini yuksaltirishdan iborat. Turkiston farzandlari qilichdan ko'ra kalimani, yovuzlikdan ko'ra yaxshilikni, buzishdan ko'ra yaratishni afzal bilgan edi. Bu yurtning aziz-avliyolari, ulug' allomalarining ilmu ma'rifati, aql ziyosi bilan yo'g'rilgan zakovatlarini qabohatni chekintirib, zulmatni yoritgan. Hozirgi avlodlarimiz ham milliy -ma'naviy qadriyatlarini tiklab, Vatan va millatning asl fidoyisiga aylanib, yana sadoqatmand kunlarda yashamoqdalar. Kelajakdagi farovonligimiz manbai esa mehnatda, ilmda, fahm-farosatlilikda. SHuning uchun ham Prezidentimiz I.A. Karimov yoshlar tarbiyasiga, ularning ilm olishiga va ahil, ma'naviy barkamol inson bo'lib etishishiga katta ahamiyat bermoqda. Ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda kino, teatr, badiiy adabiyot, milliy qadriyatlarimizni chuqur o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Milliy teatrdan A.Fitratning "Abdulfayzxon" asari sahnalashtirilgan. Shu spektakldagi bosh qahramonning shunday so'zi bor: "Qachongacha bizlar bir-birimizga yov bo'lib, dushmanlarga em bo'lamiz". Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzgan ulkan davlatning parchalanib ketishiga ham turli kelishmovchiliklar sabab bo'lmaganmidi? Asosiy ibrat ma'rifat, madaniyat rivojidir. Savodxon xalq ko'p sonli maktablar, hunar-texnika maktablari, yangi tashkil topayotgan litsey va gimnaziya, maxsus o'rta o'quv yurtlari, turli sohalarga oid dorilfununlar, fanlar akademiyasi va uning ilmiy-tadqiqot institutlarida bilim, ixtisos, malaka hosil qilib Vatan qudratini oshiradi.

Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri, hozirgi Davlat Milliy teatri, Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri, milliy kinemotografiya, kinoteatrlar, Amir Temur muzeyi, san'at muzeylari, Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Oybek, Abdulla Qahhor uy muzeylari va boshqa madaniyat o'choqlari, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti, Toshkent Davlat san'at instituti, Muxtor Ashrafiy nomidagi O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, San'atshunoslik ilmiy-tekshirish instituti, nashriyotlar, madaniyat va san'at kollej va litseylari, musiqa maktablari, xoreografiya maktabi,

bolalar teatrlari, qo'g'irchoq teatri va hokazolar hozirgi kunda keng miqyosda faoliyat ko'rsatmoqda.

Shularning hammasi hur O'zbekiston yoshlarining milliy mafkurasiga, maorifi va madaniyati, ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi yoshlarimiz o'z salohiyatlarini madaniyat, san'at ahli o'z qobiliyatini, hayrat-himmatini O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga, uning buyuk kelajagini ta'minlashga, milliy madaniyatni har tomonlama yuksaltirish va rivojlantirishga sarf etmoqlari lozim.

Yoshlarning muhim vazifalaridan biri milliy qadriyatlarimizdan boxabar bo'lib, ularni o'rganib, ardoqlab, ko'z qorachig'idek asrab, keyingi avlodga qoldirishdir. Bu esa juda xayrli va mas'uliyatli ishdir. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishini ta'minlash, o'z yurtiga munosib vorislar, yuksak fazilatli, sog'lom fikrlovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlovchi etib tarbiyalash katta avlodning mas'uliyatli, sharaflı burchi hisoblanadi. SHularga amal qilingandagina yoshlarimizning fikri teran, ma'naviy dunyosi keng bo'ladi.

Yoshlar porloq kelajagimizning poydevorini qurishda jamiyatimizda salohiyatli o'rin egallaganligi bilan ham doimo e'tiborlidir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab davlat rahbariyati tomonidan o'sayotgan yosh avlodni jismoniy, ma'naviy, axloqiy tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratilayotganligiga guvohmiz.

Shu bois yoshlar tarbiyasi bugungi kunda har bir ota-ona, murabbiylarning asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i kerak. Unga burch va mas'uliyat nuqtai-nazaridan yondoshish ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni shakllantirish garovidir. Shuning uchun ham hurmatli prezidentimiz 2000 yilni "Sog'lom avlod" yili deb e'lon qilganlar.

Prezidentimizning "Sog'lom inson deganda biz faqatgina axloqiy, sharqona etnik qoidalarga tayangan holda, eng yuksak an'analar ruhida tarbiyalangan insonni nazarda tutamiz", degan fikrlari juda oqilona aytilgandir. Darxaqiqat, ruhan va jismonan sog'lom bo'lgan bola ma'naviy, axloqiy va aqliy

kamolotga erishishi mumkin. Chunki, har bir insonning, har bir oilaning , jamiyatimizning muqaddas vazifasi –qobiliyatli farzandlarni o‘stirish, ularni jismoniy va ma’naviy etuk, ota-onasiga, Vataniga sodiq insonlar etib tarbiyalashdan iborat.

Bugungi mustaqillik sharofati bilan o‘z milliyligimizni, o‘zligimizni qayta tiklayapmiz, orzu-niyatlarimiz amalga oshdi, vijdon erkinligi barchamizga teng. Bularni yosh avlodga chuqur o‘rgatmay turib, o‘z xalqiga, uning manfaatiga, til va madaniyatiga muhabbat, hurmat ruhida tarbiyalamasdan turib, sog‘lom fikrlovchi, mushohada etuvchi avlodni, o‘z Vatanining jonkuyarlarini tarbiyalash mumkin emas. Sog‘lom avlod, yoshlar kelajagi haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo uning negizini topishimiz, ana shu negiz orqali yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni , muammolarni hal qilib borishimiz zarur.

O‘zaro izzat, hurmat borasida jiddiy suhbatlarni hayot taqozo etmoqda. Bu borada har narsa parda ortida, me‘yorida bo‘lishi, sharqona muomala madaniyatini yoshlar tarbiyasiga, qalb shuuriga singdirish, azaliy udumlarimiz, ma’naviyatimizga alohida e‘tibor bilan qarashni shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir.

Oila yoshlarni ma’naviy va jismoniy shakllantirishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Aynan oilada o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi axloqiy-ma’naviy sifatlar shakllanadi, sayqallanib, kelajak avlodga etkaziladi. Albatta, bu o‘rinda oilada asosiy tarbiyachi hisoblanadigan ayollarning ma’naviy yuksakligi, dunyoqarashi, savodxonligi muhim rol o‘ynaydi.

Yoshlar ma’naviy etukligining, sog‘lom fikrlashining eng muhim mezonlaridan biri –vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik hissini o‘z farzandi qalbiga singdira olgan ota-onaning, shunday ruh bilan yashagan xalqning kelajagi porloqdir. Yurtini sevgan, uning porloq kelajagiga ishongan har bir fuqaro, har bir yosh uchun yurt taraqqiyotiga ulush qo‘shish asosiy maqsad bo‘lmog‘i lozim. Asosiy maqsadlarimizdan biri vatanparvarlik va milliy g‘ururni yoshlar dunyoqarashiga singdirishdan iboratdir. Chunki, farzandi vijdonli, qo‘shiq

aytishni, ilm-hunar olishni hohlagan avlodi bor yurtning xonadonlari tinch, dasturxonini to'kin, yurti osoyishta bo'lishi shak-shubhasizdir.

Yoshlar tarbiyasi bugungi kunda har birimizning asosiy ishimiz bo'lib, unga burch va mas'uliyat nuqtai nazaridan yondoshish, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni shakllantirish garovidir. Umumun O'zbekiston Respublikasi siyosatini ustuvor yo'nalishlarining xususiyatlaridan biri bu sog'lom avlod tarbiyasidir.

Islohotlarga ma'naviy tus bermasdan turib maqsadga erishish qiyin. Biz haqiqatan ham murakkab davrda yashayapmiz. Endi tayyorga ayyorlikdan ko'ra ko'proq ishlashga, o'zimizni o'zimiz boqishga, o'z turmushimizni o'zimiz izga qo'yishga o'rgana boshlayapmiz. Bunday ko'nikmaga ega bo'lmaganimiz uchun turmush tarzini yo'lga qo'yish jarayoni oson kechmayapti. Afsuski, bunga ruhiy - ma'naviy jihatdan tayyor emasligimiz pand bermoqda. Har qanday jamiyat taraqqiyoti fuqarolarning ma'naviyatiga bog'liqdir. Uzoq ming yillar shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi, eng avvalo, ma'naviyat-ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallaganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ana shu azaliy an'anaga mustaqillik yillarida ham alohida e'tibor berilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Ayniqsa, ma'naviyat sohasida milliy qadriyatlarning tahlili borasida qilingan ishlar haqiqatan ham jahonshumuldir. Asrlar davomida turli siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy niyatlar bilan berkitilgan ma'naviy xazina qaytadan ochildi. Ayni paytda xalqimiz asrlar davomida qadrlab kelgan urf-odatlar, ma'naviy boyligimiz, dinimizning insonparvarlikka chorlaydigan ahkomlari o'z qadr-qimmatini topmoqda. Endi yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash uchun jahon xalqlarining bo'y- bastiga , dunyoda qabul qilingan amalu qoidalarga, ayni paytda, tarixiy ildizlarimizga mos ravishda shakllantirish lozim bo'ladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyatimizning, millatimizning, xalqimizning, davlatimizning asosiy poydevori bo'lgan yoshlarning kelajagini belgilashini alohida ta'kidlash lozim.

2.1. O'zbek milliy musiqa merosida yosh ijrochilar, yosh bastakorlar ijodini o'rganishning yoshlarda ijodkorlik tafakkurini o'stirishdagi o'rni.

Milliy musiqa merosimiz o'tmishdan ikki ulkan yo'nalish ya'ni, bir-biridan paydo bo'luvchi, bir-birini to'ldiruvchi, shu bilan birga alohida o'ziga xos xususiyat sifatlariga ega bo'lgan yo'nalishlardan tashkil topgan. SHulardan biri-musiqiy folklor bo'lsa, ikkinchisi-ijodkorlar tafakkuri bilan yaratilgan kasbiy musiqadir. Har ikki yo'nalish o'zining ichki qonunlari, shakli, ijro uslubi, joyi va vaqtiga egadir. An'anaviy xalq og'zaki ijodiyotining yirik shakllaridan, ya'ni Buxoro shashmaqomi, Xorazm olti yarim maqomi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari bilan birgalikda vujudga kelgan qator turkum musiqa namunalarini ham alohida qayd etish joizdir. Farg'ona-Toshkent ijro yo'llariga xos "Navro'zi ajam", "Hojiniyoz", "Mirzadavlat", "Ajam taronalari", "Mushkiloti Dugoh", "Munojot", "Miskin" kabi asarlar orasida "Tanavor" nomi bilan bir qator kuy va ashulalar yuzaga kelgan. Lekin har bir musiqiy asar nomlanishidan tortib toki tinglovchiga taqdim etilishigacha, ya'ni ijro jarayonigacha o'z mezonlari, o'z xususiyati va an'anasiga ega bo'ladi. "Tanavor" ham xalq orasida ma'lum sharoitlarda va o'ziga xos yo'nalishda yaratilgan asarlardan biridir. O'zbek xalqi orasida tanavorlar haqida bir qator rivoyatlar mavjud. Ular tanavorlarning aynan xalq ijodi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan musiqiy namunalaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Biz ushbu maqolada tanavorning turlari haqida, qisqa bo'lsa-da tarixi va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni xaqida fikr yuritmoqchimiz. Ma'lumki, tanavorlarning xalqimiz orasida o'ziga xos kuy va ashula yo'llari mavjuddir. Lekin ularning ashula yo'llari ham kuy sifatida ijro etilaveradi.

Tanavor iborasi ikki so'zdan tashkil topgan. "Tan" – ya'ni jismni, "ovar"- esa olib kelish ma'nolarini anglatadi. Odatda, bu iboraning iste'molga kirishi xalq amaliy an'analari bilan bog'liq bo'lib, o'zgacha tarzda keng qo'llanilgan. Bu quyidagicha ta'riflanadi: kosibchilik amaliyotida xom ashyo bilan ishlashning ilk jarayoni, oddiy terini moslab (oshlab) berish bilan bog'liq. Odatga ko'ra sigir, buzoq, qo'y, echki va ot kabi uy jonivorlarining terilari qayta ishlanib, ulardan buyum, kiyim sifatida foydalanilgan.

Aslida teri butunligicha ishlovdan chiqarilib, biror buyum tikadigan kosiblarga taqdim etiladi. Ana shu tayyor bo'lgan teri kosiblar iborasi bilan "Tanavor" deyilgan. Ularning baholashlarini ham o'ziga xos tomonlari mavjuddir va bu mezon musiqa ijodiyotiga ham to'g'ridan-to'g'ri aloqador ekanligiga guvoh bo'lamiz. Masalan: "... muayyan bir teridan 2 ta mardona, 2 ta zaifona 3 - 4 ta bachchagona mahsi ishlasa bo'ladi", deb o'ziga xos o'lchov bilan savdo-sotiq amalini bajarishgan. Bir jonivorning terisidan, ya'ni tanavoridan turli mahsilar tikilgan. Buning o'ziga xos ma'nosini shunday anglash lozimki, tanavordan bir nechta "narsalar" (amallar) ishlangan. musiqiy til bilan aytganda, muayyan bir asar ta'sirida qator variantlar ishlangan. Shu nuqtai nazardan yondashilsa, tanavorlarning kelib chiqishini bir asar bilan bog'langanini ko'ramiz. Chunki, tanavorlarning qaysi birini olmang, albatta bir jihati tanavor ekanligidan dalolat berib turadi.

O'zbek milliy musiqa ijodiyotida 20 ga yaqin "Tanavor" va tanavor yo'llariga mansub musiqiy namunalar mavjud ekanligi ustozlar tomonidan qayd etib kelinadi. Ijrochilik amaliyotida esa ular turli cholg'u va ashula yo'llarida ijro etiladi. Ular orasida : "Qora soch", "Tanavor 1, 2", "Yovvoyi tanavor", "Gulbahor va tanavor", "Adolcha tanavor", "Farg'onacha tanavor", "Qo'qon tanavori", "Yangi tanavor", "Marg'ilon tanavori", "Namangan tanavori", "Tanbur tanavori" kabi nomlar bilan yuritiladigan asarlar mashhurdir.

Tanavorlar orasida asos sifatida xizmat qilgani – bu "Qora soch" namunasidir. "Qora soch" nomi bilan mashhur "Tanavor"ning qolgan tanavorlarga asosiy zamin ekanligi, o'tmish va hozirgi zamon ustoz xonanda va sozandalar tomonidan ta'kidlanib kelinadi. Bu fikr asarning mohiyati doirasida ham ijobatini topadi. Asarning "Qora soch" deb nomlanishiga sabab, o'zbek musiqiy merosida kuy asosidagi she'r yoki g'azalning boshlanishi yoki doimo takrorlanuvchi (jumla oxiridagi) so'zlar bilan nomlash odatiga bog'liqdir. Ushbu holatda tanavorning mazkur namunasi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi.

Qora sochim o'sib qoshimga tushdi,
Ne savdolar mening boshimga tushdi...

Asar tinglanganda dastavval “Qora sochim...” so’zi aytilgani uchun muxlis va tinglovchilarning e’tiboriga tushadi. Shu sababli qo’shiqning nomi “Qora soch” deb yuritilgan bo’lishi ehtimoldan holi emas. Qolgan tanavorlar aynan ana shu “Qora soch” asari asosida ishlanganligi ularning tarkibiy tuzilishlarida, lad xususiyatlarida, usul bilan bog’liq jihatlarida va ayniqsa, kuy-ohang tuzilishlarida yaqqol namoyon bo’lib turadi. Musiqiy namunalarning kuy-ohang, lad va boshqa jihatlar albatta alohida ilmiy tadqiqotlarga muhtojdir. Tanavorlar xalqimizning diliga eng yaqin musiqiy namunalardan bo’lgani sababli, yangi-yangi qirralari ochilib, bu nodir musiqiy namunalarning haqida maqolalar va kitoblar bitiladi. Chunki, donishmand xalqimiz bu asarlarning biz musiqachilar hali anglab ulgurmagan turli jihatlarini yaxshi biladi. O’ylay-mizki, tanavorlar musiqiy namunalarning sifatida o’z ilmiy asoslarini alohida tadqiqotlarda topadi deb umid qilamiz. Tanovar xaqidagi bu ma’lumotlar bo’lajak musiqa o’qituvchilarining folklor xakidagi bilimni boyitishi va ularning ijodiy tafakkur yuritishlariga ham asos bo’la oladi.

Har bir xalqning milliy musiqa merosi uning xis tuyg’ularini dunyoqarashini, yurak dardini ifodalab berishdek kuchga egadir. Qaysi bir xalq bo’lmasin o’zining qadimiy milliy merosini sevsal ardoqlasa o’rgansa va o’zidan boshqalarga xam o’rgatsa unday komil inson o’sha milliy musiqadan zavqlanadi va e’zozlaydi.

Boshqa xalqlar singari o’zbek xalqining musiqa merosi xam qadimiydir. Bu musiqiy merosimizda o’zbek xalqiga mos bo’lgan milliy an’analar, laparlar, xonishlar, aytishuvlar, yallalar, xalpalar, mavrigiylar, maqomlar, joylarga xos bo’lgan maxalliy uslublarda o’z aksini topgan. SHu nuqtaiy nazardan Respublikamizdagi barcha musiqa dargoxlarida jaxon va qardosh mumtoz musiqa madaniyati bilan bir qatorda o’zbek musiqa merosi xam o’rgatilib kelinmoqda. SHu jumladan bizning Z.M.Bobur nomli ADUning Musiqa va uni o’qitish metodikasi kafedrasida ham o’zbek milliy cholg’ulari xisoblangan doira, qashqar rubobi, avg’on rubobi, dutor, g’ijjak, tambur, chang va boshqa bir qator milliy cholg’u asboblari o’rgatiladi. Talabalar qaysi cholg’u sozida saboq olishidan qat’iy nazar milliy musiqamizni puxta o’rganishlari va kelajak avlodga

etkazishni maqsad qilinmog'i zarur. Ma'lumki musiqiy ijrochilik pedagogikasi sohasi bir qator o'ziga xos bo'lgan umumiy muommolar bo'lib bular ijro vaqti sozlarni to'g'ri ushlab, sozlardan hosil bo'lgan tovushni to'g'ri yo'naltira bilish, chalish jarayonida barmoqlarni joylashuvi, o'ng qo'l va chap qo'l xarakatlari, xamda applikatoradan to'g'ri foydalanish kabi vazifalardan iborat. Talabalar to'rt yil o'qish davrida birgina cholg'u emas, balki barcha cholg'ularni ularni ijro uslublari xaqida amaliy va nazariy bilimlarini o'zlashtirishlari zarur.

Masalan; qashqar, avfg'on rubobidagi, qochirim va texnik bezaklar, forishlang, mordent, trel, kabilar shuningdek tanbur, sato, g'ijjak, nay, qo'shmay, cholg'ulari uchun nola juda xam zarurdir: Bunday musiqa bezaklaridan kashish, yakka zarb, qo'sh zarb, pirrang - bilak zarb, teskari zarb ufor zarb va xakozolar ular ayniqsa chetib chalinadigan cholg'ular sinfi o'quvchilari tomonidan puxta o'rganilishi zarur.

Kashish-Yarim va butun ton oralig'idagi yuqori va pastga tomon jaranglaydigan ovoz bo'lib bu «glissando» deb ataladi.

Yakka zarb- Muzrob (mediator) yoki noxunni torda yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga yo'naltirilganda xosil bo'ladigan bitta zarb.

Qo'sh zarb-torda pastga va yuqoriga yo'naltirilgan zarblarning bir me'yorda birin ketin kelishi

Bilak zarb-noxun yoki muzrob bilan xamma torlarda pastdan yuqoriga sirpanuvchi arpedjasimon xarakter bilan tovush chiqarish.

Ufor zarb- bu ijro xalq raqs kuylari uforlarda shuningdek treollik ritmik jumlalarda keng qo'llaniladi. O'zbek an'anaviy ijrochilik uslublarini nazariy o'rganish va musiqiy meros janrlarini amaliy o'zlashtirish barcha xalq cholg'u sozlari bo'limlarida talabalarning ijro malakalari ma'lum ma'noda shakllanganidan so'ng o'zlashtirishlari boshlanadi Chunki bunday asarlarni o'rganish va ijro etish ijrochilikdagi texnik imkoniyatlarimizni oshiribgina qolmay, balki musiqiy dunyoqarashimizni ham kengaytiradi.

2.2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uning bugungi kundagi zarurati.

Jamiyat rivojida ilmiy- texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishni texnologiyalashirishga olib keladi. Hozirgi davrda texnologiyalashirish jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Texnologiyalashirish ob'ektiv jarayon bo'lib, ishlab chiqarishning barcha sohalariga kirib boradi, ular evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal etilishiga asos soladi.

Texnologiyalashirish tushunchasini bevosita pedagogik jarayonlar bilan bog'lasak, u holda ta'lim- tarbiya qonuniyatlarini amalga oshirish, ularning yangi qonuniyatlarining o'ziga xos qirralarini kashf etish asosida umumiy maqsadga erishish- ijobiy sifat o'zgarishlariga ega bo'lgan barkamol avlod shaxsini shakllantirish tushuniladi. Yoki pedagogik texnologizatsiyani shaxsda yangi sifat o'zgarishlarini loyihalovchi, kutilajak natijani kafolatlovchi, ta'lim- tarbiyani tashkil etish, boshqarish va amalga oshirishning tizimli jarayoni, deb tushunish mumkin.

Texnologiya tushunchasi "Texnologiya"- grekcha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o'zgarishga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.

Pedagogik texnologiya ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashtirishning tizimli usulidir. (YUNESKO)

"Pedagogik texnologiya- ta'lim maqsadlariga va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni mutassil ravishda rivojlantirish tizimini loyihalashtirish" (N.Azizxo'jaeva).

Pedagogik texnologiyalar ta'lim- tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy- muhandislik tafakkurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standart holatga solib,

uning optimal loyihasini tuzish bilan bog'liq tushunchadir. Jumladan, o'qitishning vazxonlik usulilaridan voz kechib, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchining bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga erishishga yo'lovchi- o'qituvchi, ustoz rahbarligida o'quvchilarning ko'proq mustaqil faoliyatini tashkil etish va eng muhimi o'qituvchining deyarli bir xil natijaga erishish imkoniyatining mavjudligidir. Ayniqsa, o'qitishga yagona davlat ta'lim standartlari joriy etilgan, jahonning barcha davlatlari andozalari talabiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashning hozirgi davrida keyingi holat alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilganda ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyihalanaadi, kutilayotgan yakuniy natija- ijobiy sifat o'zgarishi kafolatlanadi, o'quv jarayonining takrorlanuvchi sikli yaratiladi, tezkor qaytuvchi aloqa vujudga keladi, o'quv maqsadlari, o'quv jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi.

Pedagogik jarayonni tafakkur asosida standartlash loyihasi g'oyasi XVI asrda yashagan slavyan pedagogi Ya.O. Komenskiy tomonidan ilgari surilgan edi. U o'zining "Buyuk didaktika" deb nomlangan mashhur asarida ta'lim- tarbiya jarayonini bir qolipga solmoqchi bo'lganki, unda "har bir usul va narsalar vaqt jihatidan" shunday joylashtirilishi kerak ediki, "butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak" edi. Buyuk pedagog YA.O.Komenskiy etmagan orzuga XX asr pedagoglari etib, pedagogik texnologiyalar yaratishdi. XXI asrda bu ijtimoiy voqelik innovatsion pedagogik texnologiyalar nomini olib, butun dunyo pedagoglariga dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Amaliyotda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni umumlashtirib, quyidagicha turkumlash mumkin.

- insonparvarlik va demokratik pedagogik munosabatga asoslangan pedagogik texnologiyalar (shaxsiy munosabatni shakllantirish, yakka holdagi yondoshuv, demokratik boshqaruv, insonparvarlikka yo'naltirilgan texnologiyalar)

- ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (o'yinli texnologiyalar, muammoli o'qitish, kommunikativ o'qitish texnologiyalari kabi)

- o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (dasturli o'qitish, differentsiyali o'qitish texnologiyasi, yakka holda o'qitish, istiqbolli o'qitish, guruhli va jamoali o'qitish texnologiyasi, axborotli texnologiya kabi)

- o'quv materialini metodik taqqoslashtirish va didaktik rekonstruktsiya qilishda pedagogik texnologiyalar. (aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar).

- xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiyalar.

Noan'anaviy dars turlarini ish faoliyatining asosiy shakliga aylantirish xamda ularni maqsadsiz qo'llash mumkin emas. Jahon psixolog-pedagoglarning tadqiqotlarida 21 asr metodlari sifatida ko'rilayotgan interfaol metodlar nafaqat zamonaviy maktablar uchun yuksak malakali o'qituvchilarni tayyorlash vazifasini bajarishda, balki ushbu jarayonni tezlashtirib ta'lim sifatini oshirishga ham sharoit yaratadi. Quyida shu xususda so'z boradi.

«Galeriyani aylanish» metodi. Kichik guruhlarining barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlar fikrlari umulashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

«Qor bo'ron» metodi. Ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko'p to'g'ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to'g'ri javob yumaloqlangan qor ko'rinishida o'sha guruh hisobiga yozib qo'yiladi; to'plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

«Asalari galasi» metodi. Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta

bo'lishi mumkin. Guruhlar qo'yilgan muammoni ma'lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma'lum qilishadi. Muammo echimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

«Dumalovchi qor uyumi» metodi. Dumalovchi qor uyumi metodi o'quv mashg'uloti o'tkazish metodining ramziy nomisi bo'lib, ish qo'yilgan muammo ustida mulohaza yuritib ko'rish uchun talabalarga vaqt, tegishli manbaalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning xar bir a'zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o'zining keng qamrovli nuqtai nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlariga ajratiladi. Muhokama kilib chiqish uchun barcha guruhlariga bitta topshiriq beriladi. Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So'ngra birinchi bilan ikkinchi va uchunchi bilan to'rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama yuritishadi. Oxir oqibatda bircha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo'lib qo'yilgan muammo echimini hal etishning turli yo'llarini, variantlarini muhokama qilishadi. Bunday muhokama jarayonida talabalarning qo'yilgan muammo yuzasidan bilimlari chuqurlashib, boyib, kengqamrovli bo'lib boradi.

«Sindikatsiya» metodi. Guruh uchta kichik guruhlariga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur. Masalan, uch noma'lumki, uchta tenglamalar sistemasini echish topshirig'i berilgan bo'lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchunchi guruh Matritsa usulidan foydalanib echadi. So'ngra echimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

«Akvarium» metodi. Guruhdan uch talaba ajratib olinib ularga xona o'rtasidagi stol atrofiga o'tirishlari va qo'yilgan muammoni o'n minut atrofida birgalikda muhokama qilishib, fikr bildirishlari so'raladi. Bu uch talaba akvariumdagi baliqlarga qiyos. Atrofdagi o'tirgan kuzatuvchilar o'rtasidagi talabalarning fikrlarini diqqat bilan tinglab, javoblarni to'g'ri va noto'g'riga ajratib yozib borishadi hamda muhokama paytida o'zlarining qarashlarini bayon etishadi. Yetarli darajada fikr bildirgan olmagan o'rtadagi talabalar o'z o'rinlarini kuchli fikr

bildirgan kuzatuvchi talabalarga bo'shatib berishadi. Har bir muammo yuzasidan bildirilgan fikrlar talabalar ishtirokida o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

«Raqamli» metodlar. Guruhlardagi talabalarning umumiy sonidan kelib chiqqan holda 4x4x4, 5x5x5, 6x6x6 metodlarining biridan foydalaniladi. Masalan, 5x5x5 metodida har biri 5 ta talabadan iborat 5 ta kichik guruhchalar tashkil etilib, ularning 5 nafar sardorlari to'planishib, qo'yilgan muammoni hamkorlikda muhokama etishadi, so'ngra o'zlarining guruhlariga qaytishib sheriklariga masalaning yechimini o'rgatishadi.

«Ajurli arra» metodi. Ajur frantsuzcha "ajour" so'zidan olingan, "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq" degan ma'noni anglatadi.

Bu metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-talaba-o'quvchilardan 4-5 kishilik kichik guruhlar tashkil etiladi;

-talaba-o'quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir necha asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar) ga qirqiladi;

-mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar paketi kichik guruhlarining har bir a'zosiga tarqatiladi;

-kichik guruh a'zolari matnli materiallardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishadilar;

-kichik guruhlarining yaxshi o'zlashtiruvchi a'zolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi;

-ekspert guruhi a'zolari qo'llaridagi topshiriqlarni hamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga o'rgatish rejasini egallashadilar;

-ekspertlar o'zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytishib o'rganganlarini boshqa sheriklariga o'rgatishadi.

O'qitishga bunday yondashilganda talaba-o'quvchilarning xamkorlikda ishlariga va katta hajmdagi o'quv materiallarining o'zlashtirilishiga erishiladi.

Bu metoddan foydalanuvchi pedagog talaba-o'quvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni qunt bilan o'rganishni, birgalikda

muhokama etishni, savol-javob qilishni, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishlari zarurligini oldindan aytadi.

«Sinektika» metodi. Bu metod amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun qulay bo'lib, "aqliy hujum" metodiga yaqin. Bunda talaba darsda qo'yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo'lishi mumkin.

«Dumaloq stol» metodi. Bu metod amaliy mashg'ulot uchun qulay. Bunda o'qituvchi tomonidan bitta savol yozilgan varaq kichik guruhga taqdim etiladi.

Talabalar o'zlarining ismi-shariflari va savolga javoblarini yozib, varaqni yonidagi talabaga uzatadi. Shu tariqa yozilgan javoblar yig'ishtirib olinib, talabalar ishtirokida noto'g'rilari o'chirib chiqiladi va natijalar baholanadi.

«Ruchka stol ustida» metodi . Bu metod amaliy mashg'ulot uchun qulay. Savolga o'zining javob variantini yozgan kichik guruhdagi talaba ruchkasini stol ustiga qo'yib varaqani yonidagi sherigiga uzatadi. Savolga javob yoza olmagan talaba ruchkasini stolga qo'ymaydi. Bir nechta kichik guruhlardagi talabalarning qo'yilgan bir xil savolga javoblari yig'ishtirib olinib birgalikda muhokama qilinadi. Bu metod afzalliklari: o'qituvchi mashg'ulotga kim tayyor emasligini ko'rib turadi; mashg'ulotga tayyorlanmagan talaba og'zaki muhokama paytida ko'rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar oladi; bu metod kichik guruhda olib boriladigan ish bo'lib, talaba intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o'zining javob varianti ustida uzoq o'ylab o'tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflab yuboradi. Shuningdek talaba mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham guruhga pand beradi; talabalar o'z javoblarini ikki marta, ya'ni yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

«Rotatsiya» metodi. Bu metod mashg'ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi va kuyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi;

-dars mavzusi bo'yicha topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzular) plakatlarga yozilib doskaga osib qo'yiladi;

-topshiriqlar soni uchta bo'lsa, talaba-o'quvchilar ham shuncha kichik guruhlariga ajratiladi va guruhchalar nomerlanadi;

-kichik guruhlar o'zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqni va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

-kichik guruhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganishib topshiriqqa javoblarini yozishadi;

-javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli bir talaba-o'quvchi tomonidan yoziladi;

-topshiriqlarga yozilgan javoblar varag'i, ma'lumotlar paketi kichik guruhlararo almashtiriladi va qo'shimcha qilinadi, biroq javoblarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaygan;

-javoblar qaysi kichik guruhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangdagi flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

«**Davra suhbati**» metodi. Davra suhbati- talabalar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr- mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish usulidir.

Davra suhbati usuli qo'llanganda stol- stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabani bir- biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu mavzu bo'yicha o'z fikr- mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir talaba o'z fikr- mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama kilish lozim bo'lsa, barcha fikr — mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol—stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir talabaga konvert qog'ozi beriladi. Har bir talaba konvert ustiga ma'lum bir

mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va yonidagi talabaga uzatadi. Konvertni olgan - talaba o'z javobini qog'ozga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi talabaga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

Davra suhbatining usulining afzalliklari:

- o'tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha talabalar o'zaro muloqotda bo'lalilar;
- har bir talaba o'zining ishtirok etish mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

«Ishbop o'yin» metodi. Ishbop o'yin—berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) usuli hisoblanadi.

O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq—atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat kilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'gartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. SHuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual - guruhli xarakterga ega. Xar bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy vazifa bo'yicha maqsadga erishish butun guruh a'zolari erishgan natijalarga bog'likdir. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

«Ishbop o'yin» usulining afzalliklari:

talabalarining bilimlarini va tajribalarini o'z qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;

talabaning boshlang'ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

talabalar o'z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

«Yo'naltiruvchi matn» metodi. Yo'naltiruvchi matn — talabalar mustaqil ravishda yo'naltiruvchi savollar yordamida ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarini bajaradigan usuldir.

«Yo'naltiruvchi matn» usuli loyixalash bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ikki usulni bir- biridan quyidagi nuqtai nazar bo'yicha farqlash mumkin:

1 «yo'naltiruvchi matn» usuli talabalarning mustaqil o'rganishiga qaratilgan;

2 «loyixalash» usuli esa, talabalarning mustaqil o'rganishidan tashqari, e'tiborni kasb o'rganishda kerak bo'ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

«Yo'naltiruvchi matn» usulidan o'quv amaliyot darslarida foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu usulni o'tkazish bosqichlari loyihalash usulining bosqichlari bilan bir—xildir. Ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida talaba va o'qituvchi orasida «qaytuvchi aloqa» o'rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. Talabalarga boshlang'ich bosqichlarda o'qituvchi tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlarga texnik chizmalar, jadvallar, yo'naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshkalar kiradi.

«Yo'naltiruvchi matn» usulining afzalliklari:

talabalarning kunikma va malakalarining shakllanishiga olib keladi;

talabalarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi;

talabalarda muloqot qilish, o'z natijalarini o'zi tekshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

talabalarda ish - harakatlarni rejalashtirish, mustakil karor qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Muammoli vaziyat» metodi. Muammoli vaziyat — talabalarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning echimini topishga asoslangan usuldir. «Muammoli vaziyat» usuli uchun tanlagan topshiriqning murakkabligi talabalarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning

echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, talabalarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

«Muammoli vaziyat» usulining afzalliklari:

talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;

talabalar sabab, farq va ta'sirlarni topishni o'rganadilar;

talabalarning bilim va tajribalarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

talabalar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

«Aqliy hujum» metodi. Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish usulidir. «Aqliy hujum» usuli biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan eng samarali usuldir. Aqliy hujum usulining yozma va og'zaki usullari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa, berilgan savolga talabalar o'z javoblarini qogoz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» usulining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to'g'ri va ijobiy ko'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy hujum usulidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar tanqidiy baholanmasligi talabalarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu usul talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” usuli o’qituvchi tomonidan qo’yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang’ich bilimlarini aniklashni maqsad qilib qo’yilganda, bu usul darsning mavzuga kirish qismida amalga oshirilishi o’rinlidir.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog’lash maqsad qilib qo’yilganda — yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi.

3. O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo’yilganda-mavzudan so’ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshirish samara beradi.

“Aqliy hujum” usulining afzallik tomonlari:

natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr- g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;

talabalarining barchasi ishtirok etadi;

fikr- g’oyalar rag’batlantirib boriladi;

talabalarining boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;

talabalarda mavzuga qiziqish uyg’otish mumkin.

“Ro’lli o’yin” metodi. Ro’lli o’yin- talabalar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart- sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko’rsatib beruvchi usuldir. Ro’lli o’yinlarning ishbop o’yinlardan farqli tomoni yakuniy baholashning olib borilmasligidir. Ro’lli o’yinda ham ishbop o’yin kabi muammoni echish bo’yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo’lga qo’yilgan. Ro’lli o’yinlar talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

O’yin yakunida talabalardan ular ijro etgan ro’lni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo’lgan talabalar o’z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o’yinga xulosa qilinadi.

«Ro’lli uyin» usulida o’qituvchi talabalar haqida oldindan ma’lumotga ega bo’lishi lozim. Chunki rollarni o’ynashda har bir talabaning individual xarakteri, xulq- atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular talabalarining o’zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak.

“Ro’lli o’yin” usulining afzallik tomonlari:

o'quv jarayonida talabalarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;

talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;

nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;

talabalarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Zig—zag” metodi . «Zig—zag» usuli tahsil oluvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha ishtirokchilarni baholay olishga qaratilgan. Ushbu texnologiyada tarqatma materiallar ishtirokchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtiriladi hamda o'zaro suhbat, bahs- munozara, turli savollar orqali ularning matnni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi va kichik guruhlarning faolliklari va o'zlashtirish darajalari tezkor baholanadi.

“Zig—zag” usuli bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-boskich. 4—5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil etish va o'rganiladigan mavzu matnini guruhlar soniga mos holda alohida bo'laklarga ajratgan holda guruhlarga tarqatish. (Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi, tarqatma matnlar ham har bir ishtirokchiga berilishi lozim)

2-bosqich. Guruh a'zolariga berilgan matnlar ishtirokchilar tomonidan yakka tartibda, so'ng guruh bilan mustaqil o'rganiladi

3-boskich. Raqamlar yozilgan qog'ozchalar (raqamlar kichik guruh ishtirokchilarining soniga mos bo'lishi kerak) kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tortiladi.

4-bosqich. Har bir kichik guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadilar. Bu bosqichda har bir ishtirokchi ham o'qituvchi, ham talaba rovida ishtirok etadilar.

O'qituvchi sifatida o'rganib kelgan materialini sheriklariga tushuntiradi. Talaba sifatida sheriklari tushuntirgan matnlarni o'rganadi. Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir – birlarini tekshirib ko'radilar. Baholash esa, guruhlarning bir-

birlariga savol berishi yoki test, savollari yoki shu ishlarning taqdimoti ko'rinishida olib borilishi mumkin.

Bu usulining afzalligi:

Hajm jihatidan katta materialni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi.

Kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjihatligining mustahkamlanishi.

«Bahs-munozara» metodi. Bahs — munozara talabalarni ikki guruhga bo'lgan holda biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish usuli. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qo'llaniladi. Bahs- munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarning biriga topshirish mumkin. Bahs- munozarani talabalar erkin holda olib borish va har bir talabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu usul olib borilayotganda talabalar orasida paydo bo'ladigan “nizo”larni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

XULOSA

Mustaqil O'zbekistonning porloq kelajagini bunyod etuvchi, Vatan istiqboli uchun o'z ulushini qo'shuvchi har bir inson madaniy jixatdan boy, ruhan go'zal bo'lishi kerak. Ozod yurtimizning ravnaqi va kelajagi yoshlarga bog'liq. Milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ochayotgan bir davrda mafkuramizni rivojlantirishda yoshlarga umrboqiy musiqa san'atimiz orqali har tomonlama oliy fazilatli inson qilib estetik ruxda ta'lim tarbiya berishimiz kerak. Bunda, albatta, oila, bog'cha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining ro'li beqiyosdir. Shaxsning rivojlanishiga salmoqli va samarali ta'sir ko'rsatadigan, madaniyatni yuksaltiradigan muhim omillardan biri musiqiy ta'lim tarbiya hisoblanadi. Chunki musiqa kishini hush fazilatli, samimiy, ziyrak, ko'ngilchang, yuksak ahloqiy fazilatli hamda ma'naviy madaniyat egasi bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Insonning kamolotga yetishida musiqaning bag'oyatda kuchli ta'siri faqat shu kunlardagina emas, balki odamzot taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaqqol namoyon bo'lib kelgan. Boy musiqiy – me'rosimiz, o'zbek milliy cholg'u asboblari ijro etilib kelgan musiqalar, maqomlar va xalq qo'shiqlari bir necha asrlardan buyon xalqni ma'naviy jixatdan yuksaltirishdek oliyjanob vazifani bajarib kelmoqda.

Tarix saboqlari shuni ko'rsatadiki, musiqiy tarbiyani insonning bolalik chog'idan boshlash lozim. Bu boradagi ijobiy fikrlarni matbuot saxifalarida tez-tez uchratish mumkin.

Darxaqiqat maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya mashg'ulotlari ko'p yillardan beri olib boriladi, lekin ularni asosiy vazifasi bolalar bayramiga bag'ishlangan tomoshalarni tayyorlashdan iborat bo'lib, milliy xalq cholg'u asboblari chalish, musiqa savodxonligiga o'rgatish ko'zda tutilmagan. Lekin Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasining xalq cholg'ularini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot eksperimental laboratoriyasi mudiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Anvar Xakimovich Liviev

raxbarligida maktabgacha yoshdagi bolalar va umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari uchun o'zbek xalq cholg'ularining yangi turlari yasaldi.

A.X.Levievning yozishicha 1996 yil oktyabr oyidan boshlab T.N.Qori Nizomiy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot inistituti tajriba-sinov maydonida, A.Ikromov tumani XTBga qarash bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida xalq cholg'ularida chalishni o'rgatish tajribasi boshlandi. Shu maqsadda musiqa tarbiyachisi va raxbarlari uchun uslubiy qo'llanma yaratildi. Bog'cha yoshidagi bolalar uchun o'zbek xalq cholg'ularida chalishni o'rganishning o'zi Respublikamiz xalq ta'limi tarixida birinchi marta kiritildi. Bunday metodik qo'llanma esa ilk bor yaratilmi. Biz o'qituvchilar yosh avlodga ta'lim – tarbiya beribgina kelmasdan, milliy cholg'ular orqali boy musiqa merosimizni, milliy madaniyatimizni yoshlar ongiga singdirgan holda, ozod yurtimizning ravnaqi va kelajagi uchun, vatan istiqboli uchun o'z ulushini qo'shadigan ma'naviy – madaniyat egasi bo'lib etishishida bor mexrimizni berib tarbiya bermog'imiz kerak.

Uslubiy adabiyotlarda aytilganidek Farg'ona viloyatidagi bog'chalarda ham ana shunday kichik ansambllarning tuzilishi kerak deb bilamiz. Chunki musiqa tarbiyasini haqiqatdan ham bog'chalardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu bilan biz o'zbek xalq cholg'ulari, uning yaratilish tarixi ulardagi ijrochilikni jajji bolalarga o'rgatib borish zarurdi. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek musiqa har qanday kishini ko'nglini yumshatadi, yaxshilikka chorlaydi, estetik didini rivojlantiradi. Bog'chalardagi ushbu ansambllar tuzilishining yana bir yaxshi jixati shundan iboratki, bolalar ichida musiqaga iqtidori yaxshi bo'lganlari bolalik davridanoq aniqlanadi. Maktabga o'tgach o'sha iqtidorli bolalar musiqa fanlarini yaxshi o'zlashtirib, kelajakda musiqa mutaxassisi bo'lib etishiga zamin yaratadilar.

O'zbek xalq cholg'u asboblari ansamblining, orkestrining o'rta maktablarda ham tuzilishi, darslardan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarida ushbu jamoalarning ishlarini jadallashtirish zarur. Sir emaski xozirgi kunda o'rta maktablarda o'zbek xalq cholg'u orkestrlari yo'q. Ansambllari bor bo'lsada ularning ishlari ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Ansambllarda, orkestrlarda ijro

etgan o'quvchilar boshqa bolalarga ziyrak, xushyor, mehnatkash bo'lib etishishadi. Bundan tashqari ansambllarda, orkestrlarda birgalikda chalik bolalarni hamjixatlikka do'stlikka chorlaydi. Demak orkestr va ansamblarning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni bolalarni beg'ubor kamolotida ahamiyati kattadir.

Bitiruv malakaviy ishimizning boblari va paragraflardagi xulosalarini jamlab shuni aytamizki, o'zbek xalq cholg'u asboblari tarixi qadim – qadim zamonlarga borib taqaladi. Barcha sohalar qatori fan va madaniyat ham jahon madaniyatidan kam bo'lmagan yurtimizda san'at jumladan musiqa san'ati o'tmishda o'z yo'nalishida rivojlanib kelgan.

Yosh avlod o'qib bilimli bo'lish, mehnat qilib jamiyatimizga foydasi tegishi, shuningdek madaniy va farovon yashashi ham kerak. Bunga faqat tarix va matematikani o'rganish bilangina erishish mumkin emas, negaki kelajak kishisi kamol toptirishda musiqaning, musiqaga oid bilimlarning ham o'z o'rni va muayyan roli bor. Maktab ishlarida musiqa ta'limi va tarbiyasi bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ilmiy jixatdan taxlil qilib, to'g'ri xulosalar chiqarish kamchiliklarni bartaraf etishning dastlabki va asosiy omilidir.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi samaradorligini oshirishda shu soxadagi faoliyatni maktabda takomillashtirishga erishish zarur. Buning uchun milliy istiqlol ruxi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz asosida yangidan yangi musiqiy repertuarlar yaratish musiqani, musiqiy ta'lim tarbiyani quvchilarga o'rgatishda yangi pedagogik texnologik vositalardan keng foydalanish, musiqa madaniyati darslarining sifatini yaxshilash, musiqa o'qituvchilarining mavqeini oshirish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Umuman olganda davlatimiz, maktab ma'muriyati va ota-onalar biz musiqa fani o'qituvchilariga shunday mas'uliyatli ishni ishonib topshirar ekanlar musiqa san'atining bundan keyingi taraqqiyotiga mustaxkam zamin yaratib berishda barchamiz o'z kasbiy sifatlarimizni ishga solishimiz zarur ekanligini tushunib oldim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. –T.: “Ma'naviyat”. - 2008-yil, 30-bet. Musiqa. 7-sinf uchun darslik.
2. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». -T., 2007 yil.
3. Musiqa ta`limi va ma`naviyat Maqolalar to`plami. Mamirov Q. – Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 1998
4. Ne`matov R. Musiqiy merosimiz xazinasini. Sovet O`zbekistoni san`ati . 1998
5. Nishonova S. Sharq uyg`onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. 13.00.01. p.f.d. diss.... Toshkent: 1998,
6. Akbarov I. Yunus Radjabi. – M., 1982.
7. Sh.Janaydarov. «Cholg`u ijrochiligi». -T., TDPU nashriyoti. 2003 yil.
8. G.M.Sharipova. «Musiqa va uni o`qitish metodikasi». -T., RTM. 2000 yil.
9. Musurmonova. O. Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.- Toshkent: O`qituvchi, 1996
- 10.Qirg`izov I. “Yoshlarni musiqaga muxabbat ruxida tarbiyalash”. Toshkent. O`zbekiston nashriyoti. 1989 y
- 11.To`lenov J., G`ofurov Z. Falsafa Toshkent “O`qituvchi” 1991 y 350-bet.
- 12.Botir Muxammad Yoqubov. Soz bilan suxbatni yolg`on demanglar. O`zbekiston adabiyoti va san`ati 1993 y
- 13.Norxo`jaev N. “O`zbekiston Vatanim manim” T. 1997 y
- 14.Omonullaeva D., X.Nurmatov, M.Mamirov. Umumiy o`rta ta`lim DTS va o`quv dasturi. –T. 199 y.
- 15.Fayziev O. Musiqada nafosat tarbiyasi. Navoiy. 1996 y.
- 16.Sharipova G. Musiqa o`qitish metodikasi (ma`ruza matni). T. 2004 y.
- 17.Sharipova G. I- II, III- IV, V-VII sinflarda musiqada madaniyati darsidan qo`llanma. T. 2001 y.
- 18.Qodirov R. Boshlang`ich maktabda ko`p ovozda kuylash. T.1989 y.

MUNDARIJA

Kirish _____ 3-8

I bob Yosh ijrochilar hamda yosh bastakorlar ijodini o'rganishda

cholg'u ijrochiligining tutgan o'rni va ahamiyati _____

1.1. Qadimgi Sharq madaniyatidan hozirgi davrgacha

bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari va ijrochilik san'ati _____ 9-21

1.2. Dastlabki o'zbek xalq cholg'u ansambllari va unda

kasb mahoratining o'rni _____ 22-35

II bob. Yosh ijrochilar hamda yosh bastakorlar ijodini

o'rganish orqali iqtidorli o'quvchilar tafakkurini o'stirish _____ 36-42

2.1. O'zbek milliy musiqa merosida yosh ijrochilar, yosh bastakorlar ijodini

o'rganishning yosh ijodkorlik tafakkurini o'stirishdagi o'rni _____ 43-46

2.2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uning

bugungi kundagi zarurati _____ 47-59

Xulosa _____ 60-62

Ilova _____

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati _____